



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI  
MAKTABGACHA TA‘LIM METODIKA KAFEDRASI**



**“MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KASB-  
HUNARGA QIZIQISHNI UYG‘OTISH ”  
mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**BAJARDI: Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi  
bitiruvchi 4 - kurs talabasi M.Turdieva \_\_\_\_\_**

**ILMIY RAHBAR: kat.o‘q F.Yuldosheva \_\_\_\_\_**

**Termiz – 2017**

## **Mundarija:**

Kirish.....3

### **I BOB MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHI VA TARBIYASI.**

1.1 Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanish.....

1.2 Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari va ularni tarbiyalash....

Birinchi bob bo'yicha xulosa.....

### **II- BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KASB-HUNARGA QIZIQISHNI UYG'OTISH USUL VA VOSITALARI.**

2.1. Mehnat tarbiyasi berish orqali kasb-hunarga qiziqish uyg'otishni tarkib toptirish.....

2.2. Kasb-hunarga qiziqishni uyg'otishda o'yinlardan foydalanish

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....

### **III.bob : MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KASB-HUNARGA QIZIQISHNI UYG'OTISH BO'YICHA TAJRIBA –SINOV ISHLARI.**

3.1 Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasb-hunarga qiziqish uyg'otishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari .....

3.2 Tajriba -sinov ishlari natijalari .....

Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....

Umumiy xulosa va tavsiyalar.....

Foydalanilgan adabiyotlar.....

Ilovalar.....

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov haqli ravishda ta'kidlaganidek, -“Tarbiya sohasi islohati bugungi kunning eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammodir”<sup>1</sup>. Darhaqiqat, huddi shunday. Biz tarixda misli ko'rilmagan yangi jamiyat qurmoqdamiz. Bu jamiyatning tamal toshini qo'yish bizning zimmamizga tushgan ekan, uni bajarish mas'uliyatini to'g'ri anglash, vijdon amri bilan ado etish g'oyat murakkab va sharaflı burchdir. Ziyolilar bu burchni qanchalik iftixor bilan ado etsalar, mustaqil imoratni poydevori shunchalik baquvvat bo'ladi. Chunki ziyolilar, ayniqsa pedagogika sohasining vakillari ertamizning umidi, davlatimizning kelajagi bo'lgan yoshlarni tarbiyalaydilar. Tarbiya, ayniqsa inson tarbiyasi bugunimiz emas, balki kelajagimizning ham hayot – mamot ishidir. Hozirgi yosh avlod to'g'ri tarbiya topsa, mustaqillik istiqbolini to'g'ri tushunsa, shubhasiz, erishgan yutuqlarimiz davomiyligi uzilmaydi.

Fikrimizcha, insonni shaxs bo'lib shakllanishiga elituvchi psixologik sifatlarning poydevori oiladan boshlanadi. Oilalarda tashkil etilayotgan tarbiya o'zining tub mohiyatiga ko'ra milliy xususiyatlarni namoyon etish bilan birga ijtimoiy oila tarbiyasi ijtimoiy pedagogikaning muhim yo'nalishi sifatida o'rganildi. Oila, turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi. O'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas balki, oilasining qarindosh–urug'lari va yaqin odamlarini, qo'shnilarining omon esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishini birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy kadriyat, inson qalbining gavharidir. Oilaning jamiyat va davlat oldidagi eng birlamchi va asosiy vazifasi unda voyaga etayotgan farzandlarni barkamol inson qilib tarbiyalashdir. Tarbiyachi ertalabki badantarbiya, jismoniy mashg'ulotlari, o'yinlar, salomatlik kunini tashkil qilish usullarini mukammal bilishi shart.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Юксак малакали мутахассислар-тараққиёт омили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – 24 б.

Jismoniy tarbiya bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarda guruh tarbiyachisi va musiqa rahbari bilan hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarning jismoniy tayyorgarligini tekshirish, mashg'ulotlarni tashkil qilishda tozalik, gigiena talablariga va xavfsizlik qoidalariga jiddiy roiya qilinadi. Mashg'ulotlar ochiq havoda, shu bilan birga maxsus jihozlangan sport zalida o'tkaziladi. Maktabgacha ta'lim davrida bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashning asosiy maqsadi bolalardagi turli ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ulardagi kuchlilik, tetiklik, chaqqonlikni amalga oshirish, ziyraklik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishdan iboratdir. Agar yangi tug'ilgan hamda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga beriladigan tarbiya asosan ularni ovqatlanishi gigienalarini tartibga solish va sezgi organlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, maktabgacha yoshidagi bolalarga beriladigan tarbiya ularning murakkab harakatlarini takomillashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalari hosil qilish, nutqlarini o'stirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini yuzaga keltirishga qaratilgandir. Demak, asosan maktabgacha yoshidan boshlab bolaning bundan keyingi butun shaxsiy hayoti davomida tarkib topa boradigan individual hususiyatlari ham yuzaga kela boshlaydi. Ana shu sababli ham insonning har tomonlama kamol topa borishi va xususan , psixik jihatdan maktabgacha yoshidagi davrida olgan ta'lim tarbiyasiga bog'liqdir.<sup>2</sup>

Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang – barangdir.

Tarbiya masalalari ta'lim - tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatining har xil turlari: mashgulotlarda ta'lim berish orqali, ijodiy va qoidali o'yinlar, bolalarning mustaqil faoliyati, ularning o'z mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish, o'z-o'ziga xizmat qilish, sayrlar, gigienik tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

---

<sup>2</sup> Sh.A.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalarT". 2013 y 45-47 b.

Ta'lim tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish bolalar maktabgacha ta'lim muassasasidagi pedagogik jarayonning har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining pedagogik jarayonida ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi va kundalik hayot, o'yin, mehnat, mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotda ta'lim va tarbiya vazifalari hal etiladi. Bolalar tevarak - atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishish, nutq o'stirish va savod o'rgatish, matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa bo'yicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni, malaka va ko'nikmalar sistemasini egallab oladilar. Bolalar egallab olishlari kerak bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar maktabgacha ta'lim muassasasi dasturida belgilab berilgan bo'lib, u bolalarning umumiy rivojlanishi va ularni maktab ta'limiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlarda ta'lim berish didaktika prinsiplari asosida bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, ma'lum izchillikda olib boriladi, mazmuni sekin - asta murakkablashtirib boriladi. Natijada u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'la di.

Bizning jamiyatimizda insonlar faoliyati jamoa xamkorligiga asoslangan va u bolalikdan boshlanadi.(oilada, bolalar bog'chasidagi tengdoshlar jamoasida, maktabda, va xokazo) shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarga jamoada yashashni o'rgatish, birga o'yin o'ynash, mehnat qilish, berilgan topshiriqqa javobgarlik bilan qarashni tarbiyalash zarur.

Birgalikdagi faoliyat kelishilgan xarakatlarni talab qiladi, umumiy xis-xayajon va kuyinchakliklarni chaqiradi va shu bilan tashkilotchilik xulqini shakllantiradi.

Mehnat qilishni xoxlash va o'rganish birinchi mustaqil o'zi bajaradigan xarakatlaridan boshlanadi. Har bir bola xammaga ma'lum «MEN O'ZIM» degan so'zlarni ishlatadi, ularda o'zi mustaqil nimadir bajarishga birinchi talab aks etgan. Bolani mustaqillikka intilishini xar tomonlama rag'batlantirish kerak. Oyoq kiyimini bolalar qo'liga bo'ysunmasa ham mayli, bola uni o'zi kiysin.

SHunday xol bo'ladiki, bir vaqtda bolalarda emas, balki ularning ota-onasida bolaning biron ishni tamomlashini kutishga sabrlari chidamaydi. O'g'li yoki qizining xoxishiga qarshi ular bolaga yordam berishga yoki ular uchun o'zlari bajarishga shoshiladilar. Natijada ularning mustaqil xarakterga birinchi intilishlari so'nadi. Kelgusida Mehnatga intilish odatisiz bolaga qanday bo'lishi xaqida ular o'ylamaydilar.

Vaholanki, aynan kichik bolaning mustaqilligida ilk mehnatsevarlik tug'iladi. Ma'lumki, bolaning mustaqillikka intilishi, o'z yo'lida ko'pgina qiyinchiliklarga uchraydi, qaysiki bu sifatlarni rivojlantirishni qiyinlashtiradi. Qiyinchiliklarni engish bolada qat'iyat, fe'l-atvorni shakllantiradi.

Bir tomondan, agar bola mayda-chuydada mustaqil bo'lmay, har narsada boshqalarga ishonsa, xech qanday mehnat yo'llanmasi haqida so'z bo'lishi mumkin emas. U o'qishni ham o'zining ishi deb qabul qilmaydi, tashqaridan yordam kutadi, uni mustaqil dars tayyorlashga o'rgatish qiyin kechadi. Maktab bo'lsa birinchi kundan boshlab o'zining talablarini qo'yadi, avvalambor mustaqillik talablarini.

Mustaqillik maktabgacha yoshdagilarning turli bosqichlarda turlicha shaklda bo'lib, turli talablari bilan aniqlanadi. Kichkina maktabgacha yoshdagilar endigina birlamchi o'z-o'ziga xizmatga o'rganadi. 3-4 yoshli bola stol atrofida tinch o'tirishni, tartibli yoyishni, salfetskadan to'g'ri foydalanishni o'rgansa yaxshiya. Masala birlamchi o'z-o'ziga xizmat ota-ona mehnatini engillashtirishda emas. muhimi, bola tartibga o'rganadi.

O'yin - maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bo'lib hisoblanadi. O'yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub'ekti sifatida shakllana boshlaydi. O'yin uzun davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog-psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini uziga karatib kelgan

Haqiqatdan ham o'yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi hayotni va kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarni har tomonlama bilib olishga qaratilgan faoliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolaning o'yin faoliyati

mazmun jihatdan har kungi vaziyatga qarab o'zgarib turadi. O'yin doimo o'zgarib turganligi tufayli bola o'ynab charchamaydi, zerikmaydi. Bolaning atrof muhitga kishilarga, narsalarga va o'ziga bo'lgan turli munosabatlari mazmun hamda shakl jihatdan har doim o'zgarib turadigan o'yin jarayonida namoyon bo'ladi. Bolalarning turli ehtiyojlari, istak va qiziqishlari, qobiliyatlari hamda bir qancha shaxsiy fazilatlari o'yin jarayonida bevosita rivojlanadi.

O'yin jarayonidagi bolalar faol faoliyatining psixik taraqqiyot uchun ahamiyati shundaki, bolalarning turli sifat va fazilatlari o'yin jarayonida faqat namoyon bo'libgina qolmasdan, bunda sifat va fazilatlar mustahkamlanadi, o'zlashtiriladi. SHuning uchun psixologiya nuqtai nazardan oqilona ya'ni to'g'ri tashkil qilingan o'yin bola shaxsini har tomonlama o'stiradi va shuning bilan birga bolaning butun psixik jarayonlarida –sezish, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayol va irodani ildam rivojlanishiga yordam beradi.

O'yin o'z mohiyati jihatidan katta kishilarning hatti –harakatlari va xulq-atvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo'lishi tufayli bolalarda ma'naviy sifatlarning mustahkamlanishi uchun va odob – axloq qoidalarini bilib olishlari uchun keng imkoniyatlar beradi. Maktabgacha yoshdagi bola o'yin jarayonida tabiblik yoki muallimlik rolini bajarayotgan bo'lsa, shu kasbga tegishli barcha sifatlarni namoyon qilishga intiladi. Ular o'yinga juda berilib ketsalar, bajarayotgan rollariga xos sifatlar shunchalik samimiy, ijodiy tarzda namoyon bo'ladi. Bolalar uchun o'yin mazmunining hech bir chegarasi yo'q.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalar hayotini hamma tomonlarini o'z o'yinlarida aks ettira oladilar. O'yinning ahamiyati bola shaxsining o'sib kamolotga etishiga ta'sir ko'rsatishdin iboratdir.

Pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil qilingan faoliyat, bolalarning har tomonlama, ham jismoniy , ham psixik, ham estetik, ham axloqiy tomondan barkamol rivojlanishlariga juda katta ta'sir qiladi.

**Bitiruv malakaviy ishi maqsadi:** Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasb-hunarga qiziqishni uyg'otish masalasini o'rganish.

**Bitiruv malakaviy ishi vazifalari:** Bitiruv malakaviy ishimizda quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

- A) Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari va ularni tarbiyalash tushunchalarini ilmiy adabiyotlardan o‘rganish.
- B) Ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlar asosida nazariy qismni tayyorlash.
- V) Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasb-hunarga qiziqishni uyg‘otish usullarini o‘rganish.
- G) Tajribani olib boorish.
- D) Tajriba natijalarini tahlil qilish, xulosa tayyorlash.
- E) Tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.
- K) Taqdimot tayyorlash.

**Bitiruv malakaviy ishi ob’ekti:** Termiz shahar Xalq Ta’limi Bo‘limiga qarashli 25- sonli maktabgacha ta’lim muassasasi.

**Bitiruv malakaviy ishi metodlari:** Malakaviy ishimizni tayyorlashda quyidagi metodlardan foydalandik. Tegishli ilmiy, uslubiy adabiyotlarni o‘rganish. kuzatish, suhbat, savol javob, tajriba.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy va ilmiy ahamiyati:** Ushbu malakaviy ishimizda, maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni rivojlanishi va tarbiyasi, maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari va ularni tarbiyalash, maktabgacha yoshdagi bolalarni ahloqiy tarbiyalash uslublari, maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘yiladigan davlat taablarida kasb-hunarga qiziqishni uyg‘otishga qo‘yiladigan talablar, Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasb-hunarga qiziqishni uyg‘otish vosita va usullari ilmiy jihatdan keng tarzda yoritib berilgan. Bu ma’lumotlardan maktabgacha ta’lim muassasalarida murabbiylari foydalanishlari mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishi tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, olti paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat . Bitiruv malakaviy ishi kompyuter variantda bet.

## **I BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHI VA TARBIYASI.**

### **1.1.MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA SHAXSINING RIVOJLANISH.**

Inson ontogenezida uning ana shu 1 yoshdan 3 yoshgacha davri alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davrda inson zotiga xos eng muhim sifatlar, xarakter xislati, atrof muhitga o'zgalarga munosabat, xulq – atvor, tafakkur va ong kabi psixik aks ettirishning turli ko'rinishlari shakllanadi. Bularning barchasi qarama-qarshiliklar kurashi ostida tarkib topadi.

Bolaning yurishga urinishi, turli narsalar bilan ovunishi va mashg'ul bo'lish imkoniyatlari kengayishi uning kattalarga bevosita tobeligi ularga bog'liqligi nisbatan kamayishiga olib keladi. Binobarin, uning mustaqil harakat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

R.YA.Abramovich–Lextmanning tadqiqotlarida ifodalanishicha, 1 yoshli va 1 yoshu 2 oylik bolada turli narsalar bilan harakat qilishining oddiy turi jadal rivojlanadi. Boshqacha aytganda, unda jismlar bilan muayyan harakatni amalga oshirishning nisbatan barqaror usullari shakllana boradi.<sup>3</sup>

SHunday harakatlar tobora ortadi va murakkablashadi, ularning mohiyati borgan sari chuqurlashadi. Bu yoshdagi bolalar bemalol yuradigan bo'lib qoladi, qo'llarini aniq va to'g'ri harakatlantira oladi. Bolada o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishning dastlabki ko'nikmalari hosil bo'ladi, u tobora faol va mustaqil bo'la boshlaydi. Bola gapira boshlashga o'rganishi uni atrofdagilarga munosabatini o'zgartiradi va bolani atrofdagilar hayoti haqidagi bilimlari kengayadi, yangi bilimlar oladi. Bolaning hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar uning jismoniy tomondan rivojlanishini mustahkamlaydi.

Maktabgacha ta'lim yoshi davrida bolalar jismoniy tomondan tez rivojlana boshlaydilar. Bola yoshidan oshgach, uning tashqi qiyofasi ham anchagina o'zgaradi. Bu o'zgarish turli a'zolarining nisbati boshqacha bo'lib

---

<sup>3</sup> N.M.Kayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDP" nashriyoti T.: 2013 y

qolganligida ko‘rinadi. Bir yoshdan oshgan bolaning bosh suyaklari ilgorigidek tez o‘smaydi. Boshining o‘ssishi biroz sekinlashib, uning evaziga qo‘l va oyoqlari tez o‘sa boshlaydi.

Agar tug‘ilgandan bir yoshga to‘lguncha bo‘lgan bolaning bo‘yi 25 sm o‘ssa, 1 yoshdan 2 yoshga to‘lguncha bolaning bo‘yi 10 smga o‘sadi 2 yoshdan 3 yoshgacha esa, bolaning bo‘yi faqat 6-7 smga o‘sadi. Maktabgacha ta’lim bo‘lgan davrda bolaning vazni ham ana shu tariqa rivojlanadi. Agar tug‘ilgandan 1 yoshga to‘lguncha bo‘lga bolaning vazni 3,5 kg ortadi. Ikki yoshdan 3 yoshgacha esa faqat 1,5 kgga ortadi. Bu ma’lumotlar hamma bolalar uchun o‘rtacha hisobga to‘g‘ri keladi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar suyaklarining rivojlanishida ham jiddiy o‘zgarishlar yuz beradi. Bu yoshdagi bolalarda tog‘aysimon suyaklarning o‘ssishi va qotishi tezroq davom etadi. Umurtqa suyaklari borgan sari mustahkamlanib, suyaklanish (qotish) jarayoni tezlashadi. Umurtqa suyaklarining bunday o‘zgarishi bola yurganda, yugurganda va murakkab sakrash harakatlarini bajarganda gavda og‘irligini ko‘tarish imkonini beradi. Biroq maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar umurtqa suyaklari hali juda oqiz va elastik bo‘ladi. To‘g‘ri o‘tirmaslik, tekis qilib solinmagan o‘rinda yotish natijasida bolaning umurtqa suyaklari qiyshayib qolishi mumkin. Qiyshayib qolgan umurtqa suyagini to‘g‘rilash juda qiyin ishdir. Bola bir umrga mayib bo‘lib qolishi mumkin. SHuning uchun ota-onalar, agar erta bog‘chaga borsa, bog‘cha tarbiyachilari bola suyaklarining to‘g‘ri va normal o‘ssishiga ahamiyat berishlari kerak. <sup>4</sup>

Bola 2 yoshga borib qolganda bosh suyaklarida ham o‘zgarish yuzaga keladi. Kalla suyagining tutashmagan joyi, ya’ni kalla liqildoqlari bitib ketib, ensa va tepa qismlari o‘sadi. Bolaning dastlabki sut tishlari chiqib, jag‘i avvalgiga nisbatan barqaror faol ishlay boshlaydi. Bir yoshga to‘lgan bolaning harakatchanligi orta borgan sari uning organlari faoliyatida ham muhim o‘zgarishlar yuzaga keladi. Ma’lumki, har qanday harakat qon aylanishi bilan

---

<sup>4</sup> M.G. Davletshin va boshqalar “Yosh davrlar va pedagogik psixologiya”.TDPU, T.: 2004

nafas olishning aktiv ishlashini taqozo qiladi. bola bir yoshga to'lgach bemalol yurib, har xil harakatlarni qiladigan bo'lgach, uning yurak vazni hamda o'pkasining xajmi anchagina kattalashadi. YUrak muskullari ham bir muncha mustahkamlanib qon bosimi bir qadar oshadi. Bu esa qon tomirlari urishining sekinlashishiga olib keladi. Masalan, chaqaloq bolaning qon tomiri minutiga 120-130 marta ursa, maktabgacha ta'lim tarbiya yoshida bolaning yuragi 110-120 marta uradigan bo'lib qoladi. Maktabgacha ta'lim tarbiya yoshidagi bola organizmi jismoniy jixatdan jadal rivojlanishida davom etar ekan, o'sayotgan organizm juda ko'p ozuqa moddalarni talab qiladi, yoshidan oshgan bola turli xil ozuqa moddalarni asosan ovqatdan oladi. Bola yoshidan oshgach, ko'krakdan ajratiladi. Ana shu davrdan oshlab uni kattalar iste'mol qiladigan ovqatlarga sekin-asta o'rgatila boshlanadi. Bolaning faqat ona sutini iste'mol qilishidan boshqa ovqatlarni ham iste'mol qilishga o'tishi uning ovqat hazm qilish organlarida o'zgarish yasaydi. Bir yoshdan oshgan bolaning oshqozoni bir muncha kengayadi, ichaklari mustahkamlanadi. Lekin maktabgacha ta'lim tarbiya yoshidagi bolalarni hali katta odamlar iste'mol qiladigan yuqori kaloriyalı ovqatlar bilan ovqatlantirib bo'lmaydi. Bolaning bu yoshdagi davrida ham asosiy ovqati sut va sutdan tayyorlangan ovqatlar, ya'ni engil hazm bo'ladigan ovqatlar bo'lishi kerak. Bu yoshdagi bolalar ovqatida sutning o'rnini hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydi. Sut va sutdan tayyorlangan ovqatlardan bola o'zining jismoniy o'sishi uchun zarur bo'lgan mineral tuzlari (kalsiy, fosfor kabi), har xil vitaminlarni (A,V,S,D) oladi. Bola organizmining o'sishi uchun zarur bo'lgan juda ko'p ozuqa moddalar o'sishi uchun zarur bo'lgan juda ko'p ozuqa moddalar asosan nondan va dondan (yormalardan) tayyorlangan ovqatlarda bo'ladi. Bola shuning uchun ham nonni juda yoqtiradi. Lekin bu yoshdagi bolalarni asosan non bilan ovqatlantirish yaramaydi, chunki" non ancha og'ir hazm bo'ladigan ovqatdir. 2 yoshdan boshlab bolaga doimiy ravishda har xil sabzavotlar (sabzi, pomidor, kartoshka kabi ) va mevalar (olma, apelsin, nok, qulupnay, gilos, olcha kabi) yoki shularning sharbatlarini (soki) berib borish kerak.

SHubhasizki, maktabgacha ta'lim tarbiya yoshidagi bolalarning jismoniy jihatdan normal o'sishlari uchun ularga juda ko'p oqsil moddalar kerak bo'ladi. Bolalar ko'p miqdordagi oqsil moddalarni sut va sutdan tayyorlangan ovqatlardan hamda go'sht, mol yog'i, tuxum kabi oqsilga boy ovqatlardan oladilar.

1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarning jismoniy jihatdan normal va sog'lom o'sishlari uchun oilada ham, yaslida ham ularni qat'iy tartibga asoslanib sifatli ovqatlantirishga jiddiy e'tibor bilan qarash kerak.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bola ovqatlanishida yuzaga keladigan ko'p o'zgarishlar bolaning qon tarkibini ham o'zgartiradi. Ovqatning xili ortgan sari qondagi eng muhim elementlar bo'lishi gemoglobin va eritrotsitlar miqdori ortadi. Lekin shunday bo'lsa ham bu yoshdagi bola organizmini yuqumli kasalliklardan muhofaza qilib turadigan oq qon tanachalari (leykotsitlar) hali etarli miqdorda bo'lmaydi va ular turli yuqumli kasalliklarga tez chalinadigan bo'ladi. Buning uchun nima qilish kerak. SHunday qilib, maktabgacha ta'lim tarbiya yoshidagi bola jismoniy jihatdan tez o'sishda davom etsa ham, u hali tashqi muhit o'zgarishlariga yaxshi moslasha olmagan bo'ladi. SHuning uchun muhitning salgina o'zgarishi bolaga darhol ta'sir qiladi. Bola yangi muhit sharoitida tez toliqadi, bolaning sog'lom o'sishi uchun uning organizmini mustahkamlaydigan tadbirlarga, ya'ni qat'iy kun tartibiga, gigiena qoidalari va organizmini muntazam tarzda jismoniy jihatdan chiniqtirishga rioya qilish kerak. <sup>5</sup>

Bolaning maktabgacha yoshdagi davrida ham asab tizimi tez rivojlanishda davom etadi. Bu davrda bosh miyaning hajmi va vazni anchagina ortadi. Masalan, bir yoshdan 2 yoshgacha kirguncha bosh miyasining vazni 940 g dan 1025 g ga ortadi. 2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan davrda esa bola miyasining vazni 1025 g dan 1112 gr ga ortadi.

---

<sup>5</sup> Maxmudov.E. "Vozrastnaya fiziologiya i osnovi gigieni" T. Izd.Lit. Fonda sayuza pisateley RUz. 2006. (INV-U-6552) 82-84 b.

Bu davrda bola miyasi vaznining ortishi bilan birga miyaning ichki qismlarida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Miya po'stidagi asab hujayralarining (neyronlarining) tizilishi murakkablashadi, ya'ni neyronlarning shoxsimon o'simalari tobora ortib boradi. Bosh miya po'stidagi asab hujayralarining takomillashuvi turli assotsiatsiyalarning (muvaqqat aloqalarning, shartli reflekslarning) yuzaga kelishini osonlashtiradi va tezlashtiradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolani asab tizimining rivojlanishida ham asab tolalarining mielinizatsiyalanishi davom etadi. Bu davrda asosan bosh miya yarim sharlaridagi asab haroratlarini bir – biri bilan bog'lovchi asab tolalari mielin pardasi bilan qorilib, bir-biridan ajratiladi. Bola psixikasining rivojlanishida buning ahamiyati g'oyat kattadir. Chunki shu munosabat bilan, ya'ni asab tolalarining bir-biridan ajratilishi bilan turli taassurotlar (qo'zg'olishlar) asab tizimida tezroq tarqaladi va ravshanroq aks ettiriladi asab hujayralarini bir-biri bilan bog'laydigan juda ham nozik asab tolalarining mielin pardasi bilan qorilib, bir-biridan ajratilishi butun asab tizimining tobora uyg'un va puxta ishlashiga yordam beradi. Bosh miya yarim sharlari po'stidagi asab haroratlarining takomillanishi natijasida miya po'sti nerv sistemasidagi barcha quyi bo'limlar faoliyatini asta-sekin o'ziga bo'ysundira boradi. Ana shu tariqa bolaning butun hayotida oliy asab faoliyatining roli ortib boradi.

Go'dak bolalarga nisbatan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda shartli reflekslar differensiyalashgan xarakterga ega bo'la boradi, ya'ni shartli reflekslarning xili ortib boradi. Maktabgacha ta'lim tarbiya yoshidagi bolalar asab tizimining rivojlanishiga eng xarakterli tomonlardan biri shundan iboratki, bu davrda shartli tormozlanishining ishlay boshlashi tufayli bu yoshdagi bolalar ayrim harakatlardan o'zlarini darhol to'xtata oladigan bo'ladilar. Masalan, 2 yoshli bolaga "tegma", "jim bo'l", "to'xta", "yo'q" kabi so'zlarni tegishli qo'l yoki boshqa ishoralar bilan aytilsa, u o'zini ba'zi harakatlardan tiya oladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar oliy asab faoliyatining ishida signallar tizimining nisbati o'zgaradi. Agar 1 yoshgacha bo'lgan bola asosan 1-signal sistemasi orqali tashqi muhitni aks ettirsa, 2 yoshga to'lgandan so'ng 2-signal sistemasi ham ishga tusha boshlaydi. Lekin boqchagacha tarbiya yoshidagi davrda 1-signal sistemasining faoliyati baribir ustun bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tarbiya yoshidagi davrda 2-signal tizimi doirasida, ya'ni nutq materiallari, so'zlar, gaplarga nisbatan shartli reflekslar yuzaga kela boshlaydi. Bu yoshdagi bolalar anchagina so'zlarning ma'nosini to'g'ri tushuna oladigan bo'ladilar.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar analizatorlari ham tobora takomillashib boradi. Ularning ko'rish, eshitish, ta'm va hid bilish, teri hamda harakat sezgilarining sezgirligi ancha o'tkirlashadi. Ana shularning hammasi maktabgacha ta'lim tarbiya yoshidagi bolalar psixikasining yanada rivojlanishi uchun qulay sharoit tug'diradi.

Ma'lumki, bolaning maktabgacha ta'lim yoshidagi davri butun sezgi a'zolarining jadal taraqqiy etish davri, ya'ni senzitiv davr hisoblanadi. Aslini olganda bolaning 3 yoshgacha bo'lgan davri senzitiv taraqqiyotining boshlanish davridir. Bu davrdan boshlab bolaning turmush tajribasi orta boradi. Bolalarning tashqi olamni bilishdagi faolliklari ortgan sari umr bir-biridan individual jihatdan farq qila boshlaydilar.

Buning sababi shundaki, har bir bola bola maxsus sharoitda o'ziga xos ravishda faollik ko'rsatadi va tevarak – atrofidagi turli-tuman narsa va hodisalarni bilishga harakat qiladi. bu esa ularda har sohaga doir o'nlab savollarning paydo bo'lishiga olib keladi. Mana shularning barchasi bolaning boqcha yoshidagi davrida boshlanadigan haqiqiy senzitiv davr uchun asos yaratadi.<sup>6</sup>

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning analizatorlari yaxshi takomillashgani va ular erkin harakat qila olish imkoniyatiga ega bo'lganliklari tufayli bu davrda bolalar psixik jihatdan tez rivojlanadilar.

---

<sup>6</sup> Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006. 23-25 b.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning turmush tajribasi deyarli yo'q bo'lgani uchun uni hamma narsa qiziqtiradi. U o'zining kundalik tinimsiz harakatlari davomida kattalarga taqlid qilib, mustaqil ravishda kiyinish, echinish, ovqat eyish, yuvinish kabi harakatlarni o'zlashtira boshlaydi. Bu davrdagi bola o'zining kundalik harakatlari davomida hech bir erinmay, ko'z o'ngidagi hamma narsalarni tekshirib ko'radi. Natijada juda ko'p yangiliklarni bilib oladi, o'zining sezgi idrokini, tasavvur va xotirasini, tafakkur va nutqini, hissiyot va xayolini –umuman hamma psixik jarayonlari rivojlanadi.

Bu yoshdagi davrda sezgilarning rivojlanishi analizatorni tobora takomillashuvi bilan bog'liqdir. 2,5 yoshli bolaning sezgilari (ko'rish, eshitish, hid va ta'm bilish, teri va harakat kabi) uning har kungi xilma-xil harakatlari davomida turli narsalarga bevosita to'qnash kelishi natijasida rivojlanadi. Sezgilarning normal rivojlanishi bola idrokining taraqqiyoti uchun zamin bo'ladi maktabgacha ta'lim tarbiya yoshidagi bolaning idroki ancha rivojlangan bo'lsa ham, xali katta odamlar idrokidan keskin farq qiladi. Birinchidan maktabgacha ta'lim tarbiya yoshidagi bolalarda turmush tajribasi yo'qligi tufayli ularning idroklari ham anglashilmagan xarakterga ega bo'ladi. Ular ko'p narsalarga birinchi marta duch keladilar. SHuning uchun bolalar idrok qiladigan ko'p narsalar ularga engillik, ya'ni dastlabki taassurot kuchiga ega bo'ladi. Ikkinchidan esa maktabgacha ta'lim tarbiya yoshidagi bolalarning idroki ko'pincha ixtiyorsiz xarakterga ega bo'ladi, ya'ni ularning idrokida muayyan bir maqsadni ko'zlash xali sezilmaydi. SHuning uchun ularning idroki bir narsadan boshqa bir narsaga beixtiyor ko'chib ketaveradi. Lekin bu yoshdagi bolalarda hissiyot kuchli bo'lgani uchun ular o'zlarini qiziqtiradigan, hayron qoldiradigan, hissiy kechinmalar uyg'otadigan narsalarni idrok qiladilar.

Masalan, yorqin rangli va tovushli o'yinchoqlar suratlar va hokazolarga qiziqadilar.

Odatda, affektiv holatga berilishini yoki affektiv ta'sirlanishi bola kattalar bilan muloqotda psixik jihatdan qoniqmaslik hosil qiladi. Psixologik

ma'lumotlarga ko'ra, "portlash", "lov etish" xususiyatiga ega bo'lgan affekt quyidagi sabablar bilan vujudga keladi.

- 1) kattalar bolaning hohish-istaklarini tushunmasligini, imo-ishorasi va yuz-chehra harakatlariga, pantomimikasiga (yuz bilan tana harakatlari qo'shilishi) e'tiborsizligi;
- 2) bolaning ixtiyorsiz xatti-harakatiga batamom qarshilik ko'rsatishi, shuningdek, uning talabini bajarmasligi, qoniqtirmasligi;
- 3) boladagi o'zgarishlarga oid bilimlardan bexabarligi, bu o'zgarishlarni oldindan seza olmasligi va boshqalar.

Jazavaga tushishning xususiyati va darajasi bolaning yashash sharoiti hamda, kattalarning munosabatida o'z ifodasini topadi va mahalliy mezonlar yordami bilan aniqlanadi, kattalar yordami bilan aniqlab boriladi.

Bir yoshli va undan sal oshgan bolaning har xil harakatli o'yinlarda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi ko'zlangan ishni bajarishidagi noxush kechinmalar uning ruhiy dunyosida dastlabki jazava (affektiv) tuyg'u va hisni vujudga keltiradi. SHuningdek, o'z faoliyatida uchraydigan ko'ngilsiz voqealarga shaxsiy munosabatni bildirish aks ettirishning yangi shakli ta'sirlanish (reaksiyaga kirishni tarkib toptiradi. (yig'lashi, qaysarlik qilish, kulish, gapirish)

Achchiqlanish, jahl qo'zg'alishi, gapirishi, qahru-g'azab tuyg'ularining xususiyatini tadqiq qilgan T.E.Konnikova ma'lumotlariga binoan, bir yoshli bolada ko'pincha bezovtalanish, xatti-harakatdagi "portlash", qahri qattiqlik yuzaga keladi. Olimaning fikricha, uning psixikasida paydo bo'layotgan xulq hosilasi tirishqoqlikning o'ziga xos ko'rinishidan iborat bo'lib, u o'zi yoqtirgan narsani tezroq qo'liga olish hohishi bilan uzviy bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tili chiqishi bilan idrokida ham o'zgarish yuzaga keladi. CHunki bola atrofidagi katta odamlarning nutqini tushunib idrok qilish bilan narsalar haqidagi tajribasini oshiradi va shu yo'l bilan notanish narsalarni bilish imkoniyati kengayadi. Bolalar idrokining

takomillashuvida soʻzning ahamiyati shundan iboratki, soʻz oʻz mohiyati jihatidan umumlashgan xarakterga ega boʻlib, u narsalarni umumlashtirish imkonini beradi. Bola soʻz yordamida oʻxshash narsalarni oddiygina guruhlarga ajrata boshlaydi. Maktabgacha taʼlim tarbiya yoshidagi bolalarning nutqi chiqqan boʻlishiga qaramay, ular hali vaqt va fazo kabi murakkab tushunchalarni toʻgʻri idrok qila olmaydilar, chunki ularda xali turmush tajribasi yoʻq. Bunday murakkab tushunchalar kundalik hayot davomida sekin-asta hosil qilib boriladi.

SHunday qilib, maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalar idrokining rivojlanishida nutqning roli nihoyatda katta. Ana shuni nazarda tutib, otalar, tarbiyachilar kattalar nutqdan idrokni rivojlantiruvchi vosita sifatida keng foydalanishlari kerak. Buning uchun bolalar bilan koʻproq gaplashish, ularga erinmay tevarak-atrofdagi turli xil narsalar haqida soʻrab berish, bolaning turli tuman savollariga tushunarli qilib javob berish kerak.

Maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarning diqqat , xotira, tafakkur, xayol, hissiyot va iroda kabi murakkab psixik jarayonlarda ham jiddiy oʻzgarishlar yuzaga keladi. Bir yoshgacha boʻlgan bolalarning diqqati nihoyatda beqaror va ixtiyorsiz boʻlsa, 2 yoshga toʻlganda diqqatida yangi sifatlar yuzaga kela boshlaydi. Bola oʻsib ulgʻaygan sari uning diqqati barqarorroq boʻla boshlaydi. Diqqatning ozmi-koʻpmi barqaror boʻla boshlagani shunda koʻrinadiki, bola oʻzini qiziqtirgan biron narsa bilan uzoq vaqt mobaynida shugʻullana oladi.<sup>7</sup>

Maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarda diqqatning ixtiyorsizligi va beqarorligi ularda tormozlanish jarayonining xali kuchsizligi bilan bogʻliqdir. Bu yoshdagi bolalarga tormozlanishga nisbatan qoʻzgʻolish jarayoni kuchli (ustun) boʻlganligi sababli qoʻzgʻolish jarayoni muvozanatlasha olmay, qoʻzgʻolish ustunlik qiladi va bosh miya yarim sharlarining tobora yangi-yangi qismlariga tarqalib ketaveradi. Maktabgacha taʼlim tarbiya yoshidagi, yaʼni ikki yoshga toʻlib uch yoshga qadam qoʻygan bolalarda diqqatning ixtiyoriy

---

<sup>7</sup> SH.Shodmonova. Maktabgacha taʼlim pedagogikasi. Fan va texnologiya. -T:, 2008 y. 56-58 b

turi ham rivojlana boshlaydi. Bu yoshdagi bolalarda ko‘rinadigan ixtiyoriy diqqat alomatlari katta odamlarning buyruq va topshiriqlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatlarda rivojlana boshlaydi.

Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolaning yoshi ulg‘ayib atrof-muxitdagi turli-tuman narsalar haqida tasavvurlari ko‘paygan sari uning xotirasi ham tez rivojlana boshlaydi. Bu yoshdagi bolaning xotirasi asosan ixtiyorsiz xotiradir. Har kimning o‘z tajribasidan ma‘lumki ikki-uch yoshlik davrida bolaning ko‘rgan bilgan narsalari esida yaxshi saqlanib qolmaydi, chunki bu yoshda turmush tajribasi xali juda oz bo‘ladi hamda esda olib qolishda hech qanday sistema bo‘lmaydi. SHu sababli esda olib qolish tufayli yuzaga kelgan assotsiatsiyalar (muvaqqat aloqalar) lokal xarakterga ega bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, bu yoshda esda olib qolingani narsalar uzuq-yuluq, ya‘ni bir-biri bilan bog‘lanmagan bo‘ladi. SHu sababli bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan, yakka-yakka xolda yuzaga kelgan muvaqqat aloqalarni tiklab bo‘lmaydi. SHuning uchun ham odatda “men es-es bilaman” yoki “sal-pal esimda qolgan” deb gapiriladi. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarning xotirasi esda olib qolishlari ixtiyorsiz bo‘lishi bilan birga mexanik xarakterga ham ega. Bolalar narsalarni mantiqiy tarzda eslarida olib qololmaydilar, chunki ularning nutqi etarli darajada rivojlanmagan va turmush tajribalari (tasavvur boyliklari) juda oz. Bu yoshdagi bolalarning mexanik xotiralari juda kuchli. Buni bolalarning juda ko‘p so‘zlarni tezda eslab qola olishida ko‘rish mumkin, lekin ular hamma so‘zlarning ham ma‘nosiga tushunavermaydi, bolaning nutqi o‘sib, so‘z boyligi tobora ortgan sari mantiqiy xotirasi rivojlana boshladi. Lekin ular emotsional xotira juda kuchli bo‘ladi.

Maktabgacha ta‘lim yoshining oxiriga kelib, ya‘ni uch yoshga to‘lish oldida bola nutqidan aloqa vositasi sifatida bemalol foydalana oladigan bo‘ladi, bolaning bunday xususiyatlarga ega bo‘lib borishi butun psixik taraqqiyotiga va ayniqsa tafakkurning rivojlanishiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Bolalar tili chiqa boshlagach, dastavval o‘ziga eng yaqin bo‘lgan kishilar va

eng ko‘p ko‘radigan narsalarning nomini, masalan “oyi”, “opa”, “da-da”, “da”, “ma” “ol”, “ber” kabi so‘zlarni aytadilar.

Ikki yoshga to‘lgan bola ko‘rgan narsalarini so‘z bilan ifodalab, idrok qilayotgan narsalarning ma‘nosini yaxshiroq tushunadigan bo‘ladi. Bola endi ayrim uzuq-yuluq so‘zlardagina emas, balki sodda gaplardan foydalana boshlaydilar. Biroq bu yoshdagi bolaning tovush chiqarish apparati ham etarlicha takomillashgani sababli uning talaffuzida ancha kamchiliklar uchraydi. U ayrim so‘zlarni katta odamlardek aniq va to‘g‘ri talaffuz eta olmaydi. Bundan tashqari so‘z boyligi etishmasligi tufayli imo-ishoralardan foydalanadilar. SHuning uchun ayrim hollarda endi gapira boshlagan bolaning tiliga tushunish qiyin bo‘ladi. Buni situativ ya‘ni, ayni shu sharoit bilan bog‘liq bo‘lgan til deb yuritiladi. Bolaning bunday o‘ziga xos tilini uning eng yaqin odami bo‘lmish onasi va otasigina tushunadi. So‘z boyligi orta borgach, bolaning o‘ziga xos bo‘lgan situativ tili haqiqiy, ya‘ni hamma uchun tushunarli tilga aylanadi.<sup>8</sup>

Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar tafakkurining o‘rishiga nutq juda katta ta‘sir ko‘rsatadi. CHunki til bilan tafakkur o‘zaro uzviy bog‘liq jarayondir. Lekin maktabgacha ta‘lim tarbiya yoshidagi bolalarda xali tom ma‘nodagi tafakkur bo‘lmaydi. Bu yoshdagi bolalarning tafakkurlari o‘ziga xos xususiyatlarga hamda aniq xarakterga egadir. Bu degan so‘z shuki, ular ayni chog‘da idrok qilib turgan narsalari haqidagina juda sodda tafakkur qila oladilar bundan tashqari, bu yoshdagi bolalarning tafakkur jarayonlarida harakat elementlari ko‘p bo‘ladi. SHuning uchun ham ularning tafakkurini ba‘zan harakatli tafakkur deb ham yuritiladi. Maktabgacha ta‘lim tarbiya yoshidagi bolalarda xali tafakkurning fikriy operatsiyalarini, ya‘ni analiz, sintez, umumiy lashtirish kabilarni ko‘rmaymiz. Ular qo‘llaridagi o‘yinchoqlarini yoki qo‘llariga tushib qolgan narsalarni amaliy (aylantiradilar, paypaslaydilar, buzib ko‘radilar tahlil qiladilar. Lekin sintez qilishga ham

---

<sup>8</sup> YUsupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O‘qituvchi. 1993.77 b.

qurbilari etmaydi). Lekin bundan maktabgacha ta'lim tarbiya yoshidagi bolalar fikriy jarayonlarni amalga oshirishga qodir emaslar, degan ma'no kelib chiqmaydi. Maktabgacha ta'lim tarbiya yoshining oxiriga kelib tafakkurning o'sishida nutqning roli juda oshadi. Bola yangi so'zlarni mumkin qadar ko'proq bilib olib, ulardan o'z tafakkurida keng foydalana boshlaydi. Bu esa fikrlash jarayonlarining o'sishiga yordam beradi. Bolada so'zlar vositasi bilan tahlil va sintez qilish, abstraksiyalash hamda umumlashtirishning dastlabki alomatlari ko'rina boshlaydi .

Tafakkurning o'sishida yana bir bosqich shundan iboratki, maktabgacha ta'lim tarbiya yoshining oxiriga kelib bola ayrim tushunchalarni bilib olishga va bu tushunchalarning eng muhim belgilarini o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Masalan, bola ko'pincha katta kishilar bilan bolalar o'rtasidagi farqni bilishga qiziqadi. U bu farqni kuzatib, taqqoslab, ko'pgina savollarga javob topadi. Natijada bola tegishli tushunchalarning ayrim belgilarini bilib oladi. 3 yoshga to'lay deb qolgan bola katta yoshdagi hamma odamlarning ishga barvaqt ketishlarini juda yaxshi biladi. Agar bu yoshdagi bolaga "adang endi barvaqt ishga ketmaydi" deyilsa, u hayron bo'lib qoladi. Chunki katta odam bo'lgan adasining ishga bormasligi uning tushunchasiga to'g'ri kelmaydi. Uning tushunchasida hamma katta odamlar ertalab barvaqt ishga ketishi kerak. SHuning uchun u hech bir o'ylab o'tirmay, "dadam kattalar-ku!" deb javob beradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tushunchalardan foydalanib, sodda xulosalar chiqarishga o'rgana boshlaydilar. Ular bir necha hukmlardan foydalanib, katta, kichik, baland, past, ko'p, oz kabi sodda xulosalar chiqara oladilar, bu esa tafakkurning yanada rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Bu davrning yana bir muhim jihati, bundan amaliy harakat tafakkuri ham rivojlana boshlaydi. Bunda kattalar harakatning mohiyatini tushuntiradilar va harakatni qay yo'sinda bajarishini o'rgatadilar: Bolani "olib kel", "joyiga qo'y", "rasm chiz", "ushlab tur" kabi so'z birikmalaridan iborat topshiriqning mohiyati bilan tanishtirib, keyin unga harakatni bajarish yo'llari ("qalamni mana bunday

ushla”, “ avval qo‘lingga ol”, «Oldin o‘ng qo‘ling bilan tut”, “Qoshiqni bunday ushlab og‘zingga olib bor” deb) ko‘rsatiladi va asta-sekin bola bu harakatlarni o‘zlashtirib, bajarishga harakat qiladilar.

SHuning uchun ham bolada predmetli harakatni o‘stirish murakkab jarayondir.

Ilk bolalik davri amaliy harakat tafakkuri vujudga keladigan davr hisoblanib, qo‘l jarayonlari turli narsalar va qurilmalar bilan almashinadi. Jismlar bilan turli harakatlarni o‘zlashtirishda ulardagi muhim va o‘zgarmas alomatlarini ajratish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi, natijada umumlashtirish va umumiy tushunchalarni o‘zlashtirish jarayoni ro‘y beradi. YAngi sharoitda predmetli harakatdan foydalanish bolaning aqliy o‘shiga ijobiy ta’sir qiladi. Bolaning o‘z hatti harakatini kattalarning harakati bilan solishtirish (onasiga, yoki onasiga o‘xshatib piyolaga ko‘tarish, yoki arg‘imchoqni aylantirish, sakrashga intilish) va uning o‘xshash jihatlarini topish bolaning aqliy o‘shisi uchun muhim ahamiyatga ega. <sup>9</sup>

Xayol 2 yoshning oxiri va 3 yoshning boshlarida bolalar juda tez rivojlanadi. Maktabgacha ta’lim tarbiya yoshidagi bolalarda murakkab psixik jarayonlardan biri bo‘lishi xayol o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu yoshdagi bolalarning xayoli asosan ixtiyorsiz xayol bo‘ladi xolos. Ular xali ma’lum maqsad asosida ixtiyorsiz tarzda xayol yurgiza olmaydilar. Bolaning tush ko‘rishi ham ixtiyorsiz xayol faoliyati bilan bog‘liqdir. Maktabgacha ta’lim tarbiya yoshidagi bolalarda xayolning rivojlanishi ular o‘ynaydigan o‘yinlar mazmunning o‘zgarib turishida yaqqol ko‘rinadi. Bu yoshda bolaning o‘yinlari xali juda oddiy bo‘ladi. Aslida ular tom ma’nodagi o‘yin bo‘lmay balki chinakam o‘yinga tayyorgarlikdir. Bu yoshdagi bolalarning sodda o‘yinlarini mashq o‘yinlari, harakat o‘yinlari, manipulyasiya (timirskilash) o‘yinlari deb atash mumkin. Bunday o‘yinlarda bola o‘yinchoqlarni bir joydan 2-joyga olib borib qo‘yadi, mashinalarni yurgizib ko‘radi yoki qiz bola bo‘lsa, qo‘g‘irchoqlariga gapirishga harakat qiladi, kubiklarni ustma-ust qilib taklaydi

---

<sup>9</sup> Nishonova.Z.T Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. T., 2004 y.35-37 b.

va shu kabi harakatlarni bajaradi. Bunday sodda o'yinlarda ham bola xayolini boyitadigan mazmun yo'q

Bola 2 yoshga to'lgach, uning o'yinlarida jiddiy o'zgarish ro'y beradi. Bolaning o'yiniga endi taqlidiy harakatlar qo'shiladi. Bolani kattalardan ko'rgan-bilganlarini o'yinda taqliddan takrorlay boshlaydi. Bu davrda bola mashinachasini u yoqdan bu yoqqa siljitish yoki tepalikdan sirg'antirib tushirish bilan cheklanmay, shofyorlarni harakatini bajaradi. Qiz bolalar esa qo'g'irchoqqa o'zlariga xirgoyi qilib allalar aytibgina qolmay, o'yinchoq kravatchalarga yotqizib tebratishga, agar it xursa "tu tet" deb xaydashga urinadilar. Bolaning bunday o'yinlarida esa endi tiklovchi xayolning yuzaga kela boshlaganini ko'ramiz.

Nutqning o'sishi bola xayolining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bola kattalarning gaplariga tushunadigan bo'lgach, har turli ertak va hikoyalarni qiziqib tinglaydigan bo'ladi. Bolalar o'zlari biladigan, o'zlariga yaxshi tanish bo'lgan narsalar (hayvonlar, bolalar kabi) haqidagi hikoyalarni joni-dili bilan eshitadilar bola bunday hikoyalarni eshitishda bevosita o'zining idrokiga, tasavvurlariga tayanadi. Bunday hikoyalarda ("uch ayiq", "qizil shapkacha", xo'randalar haqida) o'ylab chiqarilgan voqea bolaning o'zi haqiqatda ishtirok qilgan, idrok qilgan voqealarga ulanib ketadi. Natijada bolaning tajribasi ortadi va mustahkamlanadi. Bu esa o'z navbatida bola hayolining o'sishiga yordam beradi. Har bir hikoyani eshitganda bolada xilma-xil tasavvurlar yuzaga keladi. Bola bu tasavvurlari yordamida xayol qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bola hikoya eshitish orqali olgan tasavvurlarini so'zlar bilan ifodalaydi, tajribasi oshib boradi. 3 yoshda bolaning xayol obrazlari tevarak atrofdagi predmetlarning ta'sirida tug'iladi va ma'lum maqsadga bo'ysunadi. Bola qo'g'irchoqni ko'rib bo'lgandan keyin, uni kiyintiradi va "uxlashga" yotqizadi. Bordi-yu shu on "ayiqcha"ni ko'rib qolsa diqqatini quyidagi qo'g'irchoqdan olib, ana shu "ayiqcha" ga qaratadi va u bilan "o'rmonga sayr qilishga" ketadi. Bolada tajriba ortib borishi bilan xayol ham boyib boradi. Kichkina bolalarda xayol ancha rivojlangan bo'ladi.

Bola predmet bilan ko‘proq aloqa qilishi, ular bilan munosabatda bo‘lishi va ularning xususiyatlarini tekshirib ko‘rish kerak. Bu bilan unda dastlab ayrim predmetlar va hodisalar haqida tasavurlar to‘rejaa boradi, mantiqiy tafakkur rivojlana boshlaydi.

2-3 yoshli bola ko‘p narsani ko‘rishni, ko‘p narsani bilishni va tushunishni istaydi, bu uning qiziquvchanlik va sinchkovlik xususiyatidan kelib chiqadi. U hamma joyga “tiqiladi”, kattalarga halaqit berib, ularni tinkasini quritib juda ko‘plab savolar beradi. Kattalar mana shu savollarning hammasidan bolalarda tafakurni o‘stirish va tevarak - atrofdagi olamni to‘g‘ri tushuntirishni tarbiyalashda foydalanishlari kerak. Bola bu savollarga tushunarli javob olganidan keyin, uni o‘z o‘yinlarida aks ettiradi va shu yo‘l bilan ularni xotirasida mustahkam saqlab qoladi.

Bola 2,5 yoshlardan savol bera boshlaydi. Avval savollar ko‘proq predmetlarning nomi haqida bo‘lsa, keyinchalik nimalarga ishlatilishi haqida bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarning 2-muhim yutug‘i ota tilini o‘zlashtirib olishlaridir. 1 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan davr nutqning jadallik bilan o‘sish davri hisoblanadi. Bola 2 yoshga to‘lganda harakatlarning ham nomlarini bilib oladi. Bu yoshdagi bola nutqida lug‘at hajmi kam –atigi o‘n-15 ta so‘z bo‘ladi. Lekin bola xayoldagi obraz bilan borliqdagi idrok qiyotgan narsa va predmetlarni aralashtirib yuboradi.

Bir yarim yoshdan keyin aktiv yoki mustaqil nutq jadallik bilan shakllana boshlaydi. Bola kattalar bilan aloqa qilishda so‘zlardan foydalanishga kirishadi, bu bilan bolaning nutqqa o‘tish davri boshlanadi. Nutq aloqa qilish vositasi bo‘lib qoladi. So‘z boyligi ham son, ham sifat jihatidan o‘sa boshlaydi. Lug‘at boyligi bola bir yoshga kirganda bir necha so‘zdan taxminan 12-20 ta 2 yoshga kirganda 200-300 so‘zdan, 3 yoshga kirganda 1500-2000 so‘zdan iborat bo‘ladi. Lug‘at boyligining o‘sishi, shu bilan bir qatorda, bolaning o‘sishi, uning hayot sharoiti va tarbiyasiga bog‘liqdir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning hissiyotlarida ham anchagina o'zgarishlar yuzaga keladi. Boladagi birinchi xis-tuyg'ular ovqatlanish, uxlash va issiqlik kabi biologik ehtiyojlarni qondirish yoki qondirmaslikdan paydo bo'ladi. Keyinchalik harakatlanish, predmetlarni idrok qilish, odamlar bilan munosabatda bo'lish kabi yangi ehtiyojlar o'sa boshlaydi.

2-3 yashar bolalar juda impulsiv –ixtiyorsiz bo'ladilar. Bolada paydo bo'lgan his-tuyg'u va istaklarini darhol harakatlarda ko'rsata boshlaydi. SHu sababli bola o'ziga yoqqan qulay va qiziqarli faoliyatdan qanoatlanadi va hamisha shunday faoliyatga intiladi. Bolaning his-tuyg'usi o'zining kayfiyatini va kechinmalarining tezlashib turishi bilan harakatlanadi. SHodlik bilan hafalik bir-biriga yaqin turadi: kulgi orqasidan yig'i, yig'i orqasidan esa kulgi keladi. Norozilik, g'azab, o'jarlik va jaxl kabi offektlarning juda uzoq davom etishi bola uchun g'ayri –tabiiy hodisadir. 2-3 yoshli bolalar o'z tuyg'ularini tutib tura olmaydilar, bolalar katta odamlarning “mumkin emas” deb ogohlantirishlariga qaramay, birdaniga qattiq yig'lashlari, kulishlari yoki qichqirishlari mumkin. 2-3 yoshli bolalarga boshqalarning tuyg'ulari tez ta'sir etadi. 1-2 yoshli bola yig'lashi bilanoq boshqa bolalar ham yig'lashga tushadilar. Demak, bolalar bir –biriga ixtiyorsiz taqlid qiladilar. Lekin bu xususiyat bola o'sgan sari zaiflashib boradi.<sup>10</sup>

Keyinchalik bolalar kattalarning erkalashini, norozilik ko'pincha, rad etish va talab qilishlarini farq qila boshlaydilar. Bolaning xatti-harakatlariga nisbatan tevarak-atrofdagi odamlarning munosabati va bola hayotining qanday tashkil etilganligi uning xatti-harakatalarida o'zining ijobiy yoki salbiy ifodasini topadi.

Bolada ijobiy yoki salbiy tuyg'uning ustun bo'lishiga qarab, unda tetiklik, xushchaqchaqlik, ezmalik, passivlik va xayajonlanish kabi kayfiyatlardan birortasi paydo bo'ladi. G'azab, qo'rqish, norozilik va jahllilik kabi salbiy emotsiyalarinng paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Bola o'zining xis-tuyg'ularini, o'zidagi hissiy holatni xali yaxshi boshqara olmaydi.

---

<sup>10</sup> Norbosheva.M bolalar psixologiyasi. 2003 yil. 28-30 b.

Arzimagan narsa bilan kulib turgan bolaning birdan yig‘lab yuborishi yoki yig‘lab turgan bolaning birdan kulib yuborishi hech gap emas. Biroq bunday holatni katta odamlarda mutlaqo ajratib bo‘lmaydi. Katta odamlar o‘zlarining his-tuyg‘ularini juda yaxshi idora qila oladilar.

Maktabgacha ta’lim yoshining oxiriga kelib, bolaning turmush tajribasi o‘sishi va nutqining rivojlanishi natijasida yuksak hissiyotlar, ya’ni intellektual, estetik, o‘rtoqlik hislari yuzaga kela boshlaydi bola o‘zini ajablantirgan yangi narsalarni ko‘rib xayratda qoladi bu bilan aqliy tuyg‘ulari nomoyon bo‘ladi. 2 yoshdan oshgan bola chiroyli jozibador narsalarni yoqtiradi. CHunonchi, bu yoshdagi bolaga chiroyli kiyim kiygizilsa, u o‘zini g‘oyat mamnun sezadi. Bola maktabgacha ta’lim tarbiya yoshining oxiriga kelganda musiqaga, ya’ni sho‘x va chiroyli kuylarga nisbatan juda ijobiy va aktiv munosabatda bo‘la boshlaydi. Musiqaga iste’dodli bolalar hatto o‘zlari ashula ham aytadigan, raqsga tushadigan bo‘ladilar, bolalarning ana shunday faoliyatlarida ularning estetik tuyg‘ulari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda barcha psixik jarayonlar ma’lum darajada rivojlanar ekan, bu umuman , ular ongining rivojlanishiga zamin bo‘ladi. Tili chiqib, idrok va tafakkur anchagina o‘sgan bola tevarak – atrofdagi har turli narsalarga ongli munosabatda bo‘la boshlaydi. Bola o‘zining turli ehtiyojlarini anglab, o‘zining shaxsini shakllantira boshlaydi. Mashhur rus fiziologi I.M. Sechenovning tili bilan aytganda, bola ana shu davrdan boshlab o‘z sezgilarini tevarak – atrofdagi narsalardan ajratib, o‘z-o‘zini anglay boshlaydi. Bu yoshdagi bolalarning so‘z boyligida o‘z shaxsini bildiruvchi “men” degan olmosh tez-tez uchrab turadigan bo‘ladi. 2-3 yoshli bola o‘zining kayfiyati ta’sirida o‘ylamay harakat qiladi. SHu yoshdayoq bolalar bir-biridan o‘zlarining axloqiy xislatlari bilan farq qiladilar. Bir bola boshqa bir bolaning qo‘lidagi xavas qiladigan narsasiga xasadsiz, xotirjam qaray oladi, ikkinchi bir bola birovlarining narsasini so‘roqsiz olmaydi, bu harakat ahloqiy tormozning ifodasidir. Lekin xuddi shu yoshdagi boshqa bir bola urinadi. Uni o‘zini, istagini idora qilish odati yo‘q, chunki unga bunday odat o‘rgatilmagan. Ana

shu tariqa bola juda elementar tarzda bo'lsa ham o'zini shaxs sifatida anglay boshlaydi. Binobarin, ana shu davrdan boshlab maktabgacha ta'lim tarbiya yoshidagi bolalarning shaxsiy (individual) xususiyatlari kamol topa boshlaydi.

Bolaning kattalarning talablarini bajarishi uchun, bu talablar asosli va uning kuchi etadigan darajada bo'lishi lozim. Bolaga topshiriq berilgach, uning bajarilishini so'zsiz kuzatish kerak.

Bolaning o'z irodasini tarbiyalash uchun unga sharoit yaratish lozim. Chunki irodaviy xislatlar faqat doimiy ravishda mashq qilish orqali tarbiyalanadi. Kundalik tartib –qoidalarga rioya qilish iroda, intizomlilik, uyushqoqlik va ozodalilikni tarbiyalashda g'oyat katta ahamiyatga egadir.<sup>11</sup>

Kattalarning yaxshi xulqi bolalar uchun namuna bo'lishi kerak. Lekin birgina namunaning o'zi etarli emas. Balki ijobiy ish va harakatlarga doimo o'rgatib turish kerak, aktiv faoliyat jarayonidagina bolada eng zarur ko'nikma, malaka, odat va ahloqiy xislatlar paydo bo'ladi hamda mustahkamlanadi.

Bu davrda bolada “men o'zim” konsepsiyasining vujudga kelishi shaxsiy fazilatlar shakllanishiga olib keladi va xuddi shu paytlarda bola shaxs sifatida tarkib topa boshlaydi. Bolada shaxsiy harakatlar paydo bo'lishi o'sishning yangi davri boshlanganini bildiradi.

## 1.2 MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING YOSH XUSUSIYATLARI VA ULARNI TARBIYALASH.

Bolaning psixik jihatdan o'sishda maktabgacha yoshidagi davr ancha murakkab va juda mas'uliyatli davrdir.

3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davr maktabgacha yoshi davri hisoblanadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Maktabgacha yoshida bola mustaqil bo'la olish uchun zarur bo'lgan ikkita qudratli kuchga ega. Birinchidan, ma'lum darajada o'ziga bo'ysundirilgan harakat

---

<sup>11</sup> Bolotina L.R. Doshkolnaya pedagogika M.: Labirint. 2005 g 49-51 b.

apparatiga ega. Ikkinchidan esa , atrofidagi katta odamlar va o‘z tengdoshlari bilan bir qadar erkin munosabatda bo‘la oladigan nutqqa ega . Mana shuning uchun maktabgacha yoshidagi bolalarning xulq – atvorlari, qiziqishlar va ehtiyojlari maktabgacha gacha tarbiya yoshidagi bolalarnikidan farq qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, maktabgacha yoshidagi bolalar bilan maktabgacha ga tarbiya yoshidagi bolalar tarbiyasiga ham turlicha munosabatda bo‘lishni taqozo etadi.

Agar yangi tug‘ilgan hamda maktabgacha gacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan tarbiya asosan ularni ovkatlanishi gigienalarini tartibga solish va sezgi organlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa maktabgacha yoshidagi bolalarga beriladigan tarbiya ularning murakkab harakatlarini takomillashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalari hosil qilish, nutqlarini o‘stirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini yuzaga keltirishga qaratilgandir. Demak, asosan maktabgacha yoshidan boshlab bolaning bundan keyingi butun shaxsiy hayoti davomida tarkib topa boradigan individual xususiyatlari ham yuzaga kela boshlaydi. Ana shu sababli ham insonning xar tomonlama kamol topa borishi va xususan , psixik jihatdan maktabgacha yoshidagi davrida olgan ta’lim tarbiyasiga bog‘liqdir. Bu haqida N.K.Krupskaya shunday deb yozgan edi: “yosh bolalik chog‘laridan qolgan taasurotlari juda katta ahamiyatga ega”.<sup>12</sup>

Mashhur rus pedagoglaridan Lestgafning fikricha, insonning boshqa yoshdagi davri shunday bir davrki, bu davrda unda kelgusida qanday karakter hislatlari paydo bo‘lishi belgilanadi va axloqiy karakterning asoslari yuzaga keladi. Insonning kamol topa borishda maktabgacha yoshidagi davrning ahamiyatiga doir Lestgafning bu fikri buyuk rus pedagogi A.S.Makarenkoning quyidagi fikriga to‘la mos keladi. A.S.Makarenko bolalarni juda kichiklik davridan boshlab tarbiyalash zarurligi haqida gapirib, tarbiyaning eng muhim asoslari bolaning 5 yoshgacha bo‘lgan davri mobaynida yuzaga keltiriladi. Mana shu davrda qilingan ish butun tarbiya prosessining 90 % ni tashkil etadi , degan edi.

---

<sup>12</sup> F.Qodirova, SH.Toshpo‘latova, M.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”.-T., “Ma’naviyat”. 2013 y. 86-88 b.

Haqiqatdan ham bolaning maktabgacha yoshidagi davri shu qadar mazmundor va aktiv davrdirki, bu davr bolaning kelgusi o'sishida albatta o'z aksini qoldiradi. Lekin bundan bolaning maktabgacha yoshidagi davri, uning qanday odam bo'lib chiqishni batamom belgilab beradi, degan ma'no kelib chiqmaydi. Mana shuning uchun bola shaxsining shakllanishi faqat maktabgacha yoshidagi davr bilangina bog'lab bo'lmaydi. Umuman inson o'z tabiati jihatidan deyarli butun umri davomida tarbiyalanuvchi mavjudoddir. Lekin har bir odam harakteriga xos bo'lgan shaxsiy xislatlarning yuzaga kelishida uning har bir yosh bosqichida olgan ta'lim tarbiyasini aksi sezilib turadi.

Maktabgacha yoshdagi davr o'z ta'sir kuchi jihatidan g'oyat ma'suliyatlidir

Bola yasli davrini o'tib, maktabgacha ga kelgach, uning yashash sharoitida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Birinchidan, bola maktabgacha yoshiga o'tgach, uning faoliyat doirasi ancha boshqacha mazmunga ega bo'la boshlaydi.

Ikkinchidan, bola maktabgacha ga o'tgach, muayyan asosida mahsus pedagog tomonidan tarbiyalana boshlaydi.

Bolaning yashash sharoitida yuzaga kelgan bu o'zgarishlar uning psixik jihatdan o'sishiga ta'sir etmay qolmaydi. Mana shuning uchun bola maktabgacha yoshidagi davrida faqat jismoniy jihatdangina o'smay, balki psixik jihatdan ham taraqqiyotning yana bir yuqori pog'onasiga ko'tariladi. Maktabgacha yoshidagi bolaning har bir xatti – harakatidan uning mustaqilligi, nutqning elementar bo'lsa ham, gramatik jihatdan to'g'ri shaklini amaliy o'zlashtira boshlaganligi ko'rinib turadi. Maktabgacha yoshidagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi hususiyatlaridan yana biri ularning taqlidchanlik va serharakatliklaridir.

Maktabgacha yoshidagi davrida bolalarning naqadar serharakat bo'lishlari barcha ota – onalarga tarbiyachilarga ma'lum bu yoshdagi bola butun kun davomida xilma – xil va tinimsiz harakat qilish orqali atrofdagi muhit va odamlar bilan munosabatda bo'ladi. Binobarin, shunday xilma – xil harakatlar tufayli o'z tasavvuri hamda bilim doirasini kengaytirib boradi.

Maktabgacha yoshidagi bolaning jismoniy jihatdan o'sishini harakterli tomoni shundan iboratki, bu davrda ham bolaning tanasi bilan qo'l-oyoklari

barobar mutanosiblikda o'smaydi. Maktabgacha yoshidagi bolalarning oyoqlari nisbatan ko'prok o'sadi.

Biroq, shunga qaramay, 6 yoshgacha bo'lgan bolaning suyaklari xali yaxshi qotmagan, ya'ni tog'aysimon bo'ladi. Muskullari ham hali baquvvat bo'lmaydi. SHuning uchun maktabgacha yoshidagi bolalar ma'lum muddat davomida qiyshiq o'tirib qolishlari yoki bo'lmasa, qaltis harakat qilishlari orqasida umurtqa suyaklarini qiyshaytirib qo'yishlari mumkin. Ana shuning oldini olish uchun bu yoshdagi bolalar skeletining to'g'ri o'sishiga aloxida e'tibor berish kerak. Maktabgacha yoshidagi bolalarning skeletlari kichik bolalarniki kabi elastik (egiluvchan) bo'lishga qaramay, uning asosiy qismlari bu yoshda tez qota boshlab, suyak shakliga kiradi.<sup>13</sup>

Bola 7 yoshga etgach, umurtqa suyagining bo'yin qismida oldinga tomon, ko'krak qismida esa orqaga tomon ma'lum darajada egilish yuz beradi. Keyinchalik bolaning umurtqa suyagi mana shu shaklda saqlanib qoladi. Maktabgacha yoshida bolaning bosh suyagi ham tez o'sadi. 3 yoshdan boshlab bosh miya suyagining orqa va tepa tomonlari tez o'sadi. Bolaning bosh suyagi 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrda tez o'sadi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning jismoniy jihatdan o'sishlari davomida ularning tashqi qiyofalari va skeletlari bilan birga ichki organlari ham ancha tez o'sadi. Maktabgacha yoshidagi bolaning yuragi xajmi jihatdan, chaqaloq bolaning yuragiga nisbatan 4-5 barobar ulg'aygan bo'ladi. Lekin barcha yoshida ular bir qancha marta ulg'aygan bo'lsa ham uning muskullari hali etarli darajada mustaxkamlanmagan bo'ladi. Mana shuning uchun maktabgacha yoshidagi bolaning yuragi bir qisqarishda organizm uchun etarli qon siqib chiqara olmaydi. Maktabgacha yoshidagi bola yuragining katta odamlar yuragiga qaraganda nisbatan tezroq urishini sababi ham mana shundadir. CHunonchi, agar bir yoshdagi bolaning yuragi 1 marta qisqarishda 10,2 kub.santimetr qon siqib chiqarsa, 7 yoshli bolaning yuragi 1 marta qisqarganda 23 kub.santimetr qon siqib chiqaradi. Katta

---

<sup>13</sup> M.N. Ismoilov., "Bolalar va o'smirlar gigienasi", 1994 y. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. T. (INV-920.757) 41-43 b.

yoshdagi odamlarning yuragi esa 60 kub.santimetrdan ortiqroq qon siqib chiqaradi. SHu narsani ham aytish kerakki, bolaning maktabgacha yoshidagi davrida qon bosimi biroz kuchayadi. Bu hodisa barcha yoshdagi davrda yurakning nisbatan kuchli ishlashi bilan bog'liqdir.

Ma'lumki, o'pkaning normal ishlashi va rivojlanishga ko'krak qafasiga o'sishi ko'p jihatdan ta'sir qiladi. CHunki, o'pkaning faoliyati asosan ko'krak qafasi shakli va elastikligi bog'liqdir. Manashu jihatdan kichik yoshdagi va maktabgacha yoshdagi bolalarning ham ko'krak qafaslari nafas olish qulay emas. Bolalarda diafragmaning bir qadar tik joylashganligi qisqartirib qo'ygan. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'krak qafasi vertikal uzunligini qisqartirib qo'ygan. Bundan tashqari, maktabgacha yoshidagi bolalarning nafas olishlari katta odamlarning nafas olishlariga nisbatan yuzakirok bo'ladi. Bolalar o'pkasining hajmi etarli darajada kattalashmaguncha chuqur nafas olmaydilar. Natijada bolalar chuqur nafas olishning urnini tez nafas olish bilan qoplaydilar. Bog'cha yoshdagilarni boshqa organlar kabi ko'krak qafasi doirasining kengayishi bu davrda ham ancha tez davom etadi. Bola ko'krak qafasining doirasi yiliga 1-2 smdan kengayib borib, 13-14 yoshga etganda o'z shakli va hajm jihatdan katta odamlarning ko'krak qafaslariga yaqinlashadi. Ko'krak qafasining torligi va o'pkalarning kichikligi tufayli bolalar tez-tez nafas oladilar.

Bolaning maktabgacha yoshidagi davrida, ya'ni 3 yoshdan 7yoshgacha bo'lgan davrida nafas olish miqdori deyarli o'zgarmaydi. Biroq maktabgacha yoshidagi davrida bola xaddan tashqari harakatchan bo'lgani tufayli uning organizmi juda ko'p miqdorda oqsilni talab qiladi. SHuning uchun bolaning maktabgacha yoshida mumkin qadar ochiq xavoni ta'minlash kerak bo'ladi.

Ma'lumki bolalar asab tizimining eng kuchli taraqqiy etadigan davri 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan davriga to'g'ri keladi. YUqorida aytib o'tganimizdek yangi tug'ilgan bola bosh miyasining o'rtacha og'irligi 380 – 400 gramm keladi. Bola maktabgacha yoshiga etguncha uning miyasi g'oyat kuchli ravishda o'sib , deyarli 3 barobar ko'payadi. Demak , maktabgacha yoshiga etgan bola miyasining og'irligi 1200 grammga etadi. Maktabgacha yoshidagi bolaning

miyasi faqat xajmi jihatidan ham ancha murakkablashadi. Masalan: 3 yoshli bola miyasidagi qo'zgalishlarni tegishli markazlarga elituvchi asosiy asab tolalari (asosiy o'tkazgichlar) mielinizasiyalashadi, ya'ni bir – biridan ajratuvchi yumshok oqimtir modda bilan qilinadi.

Maktabgacha yoshidagi bolalar asab tizimining taraqqiyoti davomida bosh miya yarim sharlari po'stidagi asab hujayralari tobora murakkablashib boradi. Avval xech qanday shoxchalarga ega bo'lmagan asab xujayralari bolaning jismoniy jihatdan o'sishi davomida har tomonlama tarqalib ketgan juda nozik shoxchalarga ega bo'lib boradi.

Natijada bosh miya yarim sharlari o'rtasida muvofiq bog'lanishlar xosil bo'lish imkoniyati orta boradi. Biroq , maktabgacha yoshidagi bolalar markaziy asab tizimlarida deyarli farq qilmasa ham faoliyat jihatdan ancha farq qiladi.

Maktabgacha yoshidagi bolalar oliy asab faoliyatlarining o'ziga hos xususiyatlaridan yana biri shuki, tashki muhitdagi biron quzgatuvchining ta'siri bilan yuzaga keladigan qo'zgalish va tormozlanish proseslari yosh bolalarniki kabi iradiasiyalanish xususiyatini saqlab qolgandir. Natijada maktabgacha yoshidagi bola miya po'stining ma'lum markazida joylashgan boshqa markazlarga ham keng tarqalib ketadi. SHuning uchun maktabgacha yoshidagi bolalar o'z diqqatlarini biron narsaga uzok muddat davomida qarata olmaydilar SHuni aytib o'tish kerakki, markaziy asab tizimining taraqqiyoti maktabgacha yoshidagi hamma bolalarda bir xil temp bilan davom etmaydi. Bu murakkab teraqqiyot bolalarning individual xususiyatlariga , xususan yashash sharoitlariga ya'ni oilada hamda yasli bilan maktabgacha da qanday tarbiyalanayotganlariga bog'liqdir. Bolaning tarbiyasi qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa , uning asab tizimi shunchalik normal taraqqiy etadi. Bola asab tizimining taraqqiy etishda uniing atrofdagi narsa va xodisalar bilan bevosita va mustaqil munosabatda bo'lish juda katta rol o'ynaydi. CHunki bunda bolaning asab tizimi aktiv faoliyatda bo'ladi va binobarin , tez rivojlanadi shuning uchun bola qanchalik aktivlik bilan tashqi muxitni mustaqil o'rgansa , ya'ni aktiv ravishda aks ettirsa uning markaziy asab tizimi ham shunchalik tez takomillashadi. Mana shu xislatni nazarda tutib , tarbiyachilar

bolalarning mustaqil faoliyatlarini to'g'ri tashkil etishga alohida e'tibor berib borishlari lozim .<sup>14</sup>

Maktabgacha yoshidagi bolalar asab tizimining takomillanishi davomida ularning sezgi organlari, ya'ni analizatorlari ham bora rivojlanib boradi. Sezgi organlari atrofimizdagi dunyoni bilishda asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi. Bu xususan maktabgacha yoshidagi bolalarga taa'luqlidir.

Maktabgacha yoshidagi bolalarni eng asosiy va etakchi faoliyatlaridan biri o'yindir . Etakchi faoliyat deb bolaning ayni shu yoshida tez – tez ko'zga tashlanib turadigan xatti – harakatiga aytamiz. Etakchi faoliyat shunday faoliyatki, bu faoliyat tufayli bolaning psixik jihatdan o'sishida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Boshqacha qilib aytganda , mana shunday asosiy faoliyat jarayonida bolaning barcha psixik proesslari anchagina o'sadi. O'yin bola hayotida mana shunday asosiy faoliyatlardan biridir. O'yin shu qadar universal, shu qadar ko'p qirrali va qudratli faoliyatdirki, barcha yoshdagi bolalarni o'yindan boshqa kamolga etkazishni tasavvur etish qiyin.

Bolalar o'yin faoliyatlarining mohiyati rus psixologlaridan L.S. Vigotskiy , S.K.Rubinshteyn , A.N.Leontev, E.A.Arkin, D.B. Elkonin va boshqalarning asarlarida ilmiy asosda yoritib berilgan. Rus psixologlari o'z asarlarida burjua psixologlarining o'yin nazariyalarini qattik tanqid ostiga olishlari bilan birga bolalar o'yin faoliyatlarining mohiyatini materialistik asosda ilmiy nuqtai nazardan tushuntirib berganlar. Bu jihatdan , xususan, S.K.Rubinshteyn, A.N.Leontev, E.A.Arkinlarning asoslari diqqatga sazovordir.

Bolaning psixik taraqqiyotini o'yinsiz tasavvur qilish qiyin. Ma'lumki bolaning yoshi ulg'ayib , mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari uning atrofidagi narsa va hodisalar dunyosi ham kengayib boradi. Bolaning maktabgacha yoshidagi davrida, uning faoliyat doirasiga atrofidagi kuchi etadigan, qo'lidan keladigan narsalardan tashqari, kattalarning faoliyatlariga doir, yani ularning hali

---

<sup>14</sup> T.S.Usmonxo'jaev., M.T.Toirova "Kichkintoylarni gigienik tarbiyalash". O'qituvchi.T.1997. (INV-5296) 25-27 b.

mutlaqo aqlari etmaydigan , jismoniy jihatdan kuchlari etmaydigan narsalar ham kiradi. CHunki ular turmush tajriba-larining ozligi va binobarin , haddan tashqari qiziquvchanliklari tufayli atrofdagi hamma narsa va hodisalarni bilishga intilaveradilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mavxum nazariy faoliyatning , ya'ni nazariy yo'l bilan bilish faoliyatining bo'linishi mumkin emas. Bu yoshdagi bolalarning atrofdagi narsalarni bilish faoliyatlari faqat bevosita harakat shaklida bo'ladi. Maktabgacha bolalarining haddan tashqari faol (betinim,harakatchan) ekanliklarining sababi ham shundadir.

Maktabgacha yoshdagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevoisita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa e'tiborliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zining kuchi, aqli etadigan narsalar bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zini kuchi ham, aqli ham etmaydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga, ya'ni bilib olishga intilaveradi. Buning natijasida bolaning xaddan tashqari tez ortib borayotgan turlari ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasida keskin qarama – qarshilik yuz beradi. Masalan bola avtomashinani, tramvayni o'zi xaydagisi, rostakam otga minib yurgisi, uchuvchu bo'lib samolyotda uchkisi, rostakam militsioner bo'lgisi keladi. Biroq , bola o'zidagi bunday extiyojlarni birortasini ham xaqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. CHunki bu yoshdagi bolada bunday kasblarga mansub bo'lgan murakkab ko'nikma va malaka yo'k, bo'lishi ham mumkin emas. Bu o'rinda tabiiy bir savol tug'iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turlicha extiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasida qarama – qarshilik qanday yo'l bilan xal qilinadi? Bu qarama – qarshilik faqat birgina faoliyat orqali, ya'ni bolaning o'yin faoliyati orqaligina , xal qilinishi mumkin. CHunki birinchidan , bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy maxsulot ishlab chiqarishga qaratilgan emas. Bolalarni o'yinga undovchi sabab (motiv) ham o'yindan kelib chiqadigan natijaga emas,(o'yindan ko'pincha xech qanday natija kelib ham chiqmaydi), balki shu o'yin prosessidagi turli xarakterlarga bog'liqdir. Ikkinchidan esa bolalar o'yin jarayonida o'z ixtiyor-laridagi narsalarni, ularni

qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo'lgan narsalarga aylantirib (cho'pni ot qilib, stulchani avtomashina qilib) kuchlari etgancha erkin faoliyatda bo'laveradilar. SHunday qilib, bolalar atroflaridagi kattalar uchungina mansub bo'lgan, xali o'zlarining kuchlari ham, aqlari ham etmaydigan juda ko'p narsalarni faqat o'yin faoliyati orqali o'zlashtiradilar. O'yin orqali ular voqelikdagi narsa va xodisalarni biladilar.

O'yin bolalar xayotida shunday ko'p qirrali faoliyatdirki, unda bolalarga mansub bo'lgan mehnat ham, narsalar haqida tafakkur qilish ham, san'at ham, xayol, dam olish va xushchaqchqlik manbalari ham mujassamlangandir, ya'ni mana shu proseslarni barchasi o'yin faoliyatida namoyon bo'ladi. SHuning uchun ham o'yin bolalar talab qilayotgan darajadagi to'la qonli xayotni ta'min eta oladi. O'yinning bolalarni maftun etuvchi kuchi ham shundadir.<sup>15</sup>

O'yin faqat tashqi muxitdagi narsa va xodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik proseslari bilan birlikda individual (shaxsiy) xislatlari ham shakllanadi. Mana shu nuqtai nazardan o'yin maktabgacha dagi ta'lim – tarbiya ishlari orasida eng asosiy, markaziy o'rinda turadi. Demak, maktabgacha dagi ta'lim – tarbiya ishlarini muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila biliishga bog'liqdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlari quyidagicha psixologik xususiyatlarga ega. Maktabgacha yoshidagi bolalar o'yinlarining birinchi harakteri xususiyati, o'yin tematikasini xaddan tashqari sermazmunligi boyligidir.

Maktabgacha yoshidagi bolalar o'yin faoliyatlarining ikkinchi xarakterli xususiyati bolalar o'yinlarida milliy tuyg'ularning aks etishidir.

Maktabgacha yoshidagi bolalar o'yinlarining uchinchi xususiyati – o'yin jarayonida vatanparvarlik tuyg'ularining namoyon bo'lishidadir. O'rta va katta maktabgacha yoshidagi bolalar Vatanimizning poytaxti Toshkentni juda yaxshi biladilar va uni sevadilar, shu tufayli o'yinchoklardan zo'r maroq va g'urur bilan

---

<sup>15</sup> S.X.Aripova., "Yosh fiziologiyasi va gigienasi". Fan va texnologiya. T.2010. (INV-7496).

yasaydilar. Bundan tashqari , turli millat bolalari tusida yasalgan qo‘g‘irchoqlar yasashga intiladilar.

Maktabgacha yoshidagi bolalar o‘yining keyingi xususiyati barcha jarayonlarining diqqati, sezgi va idroki, xotirasi, tafakkur va nutqi , xayoli, xis – tuyg‘u irodasi, xarakteri va qobilyatining namoyon bo‘lishidir.

SHunday qilib , bolaning o‘yin faoliyati uni har timonlama shakllantiruvchi , barcha psixik jarayonlari va psixologiya xususiyatlarini rivojlantiruvchi etakchi faoliyat bo‘lib xisoblanadi.

Dastavval extiyojning o‘zi nima ekanligini tushunib olaylik. Inson barcha boshqa organizmlar singari o‘z xayotini saqlab qolishi uchun har doim o‘zidan tashqaridagi muxitda mavjud bo‘lgan turli narsalarga muxtoj bo‘ladi. Mana shu inson organizmining nimalargadir muxtojligi extiyojni keltirib chiqaradi. Demak, extiyoj deganda biz organizmimizning qandaydir bir narsaga nisbatan bo‘lgan muxtojligini tushunamiz.

Maktabgacha davrda ahloqiy tushunchalar borgan sari qat‘iylasha boradi. Ahloqiy tushunchalar manbai bo‘lib ularning ta‘lim –tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo‘lishi mumkin. Ahloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shu bilan birga kattalarning ayniqsa onalarning maqtovi va tanqidlari orqali o‘tadi va mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlarning bola shaxsidagi muvaffaqiyatga erishishga harakat hususiyatining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti, hamda kasb tanlashida ahamiyati juda katta.

Maktabgacha yoshdagi davrda bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. U shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. SHaxsiy muloqot motivlari bu –bolaning tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog‘liq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan motivlardir. Bu motivlarga asta –sekinlik bilan bilim, ko‘nikma va malakalarni egalash bilan bog‘liq bo‘lgan o‘qish motivlari qo‘shiladi. Bu motivlar ilk bolalik

davrdan boshlanib yuzaga keladigan bolalarning tabiiy qiziquvchanligi o'rnida paydo bo'ladi. O'zini ko'rsatish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo'ladi

Kichik va o'rta maktabgacha yoshda bola xarakterining shakllanishi davom etadi. U asosan bolalarning kattalar harakterini kuzatishlari asosida tarkib topadi. SHu yillardan boshlab bolada ahamiyatli hisoblangan –iroda, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi ahamiyatli shaxsiy hususiyatlar rivojlana boshlaydi. Katta MTM yoshida bola atrofdagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishga o'rgana boshlaydi. Bu esa unga kelajakda odamlar bilan til topishishda, ish bo'yicha va shaxsiy munosabatlarni normal ravishda o'rnatishda olishida foyda keltiradi. Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota-onalari xaqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir. <sup>16</sup>

Maktabgacha yoshdagi bolalarning hayoli, asosan, ularning turli-tuman o'yin faoliyatlarida o'sadi. Birok, shu narsa diqqatga sazovorki, agar maktabgacha yoshdagi bolalarda hayol qilish qobiliyati bo'lmaganda edi, ularning hayoli ham xilma-xil bo'lmas edi. Maktabgacha yoshdagi bolalar hayolining o'sishiga faol ta'sir qiluvchi omillardan yana biri ertaklardir. Bolalar xayvonlar haqidagi turli ertaklarni eshitganlarida shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan ma'lum munosabat yuzaga keladi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz his-tuygular g'oyat kuchli va juda tez namoyon bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning his-tuygulari ular organik ehtiyojlarining kondirilishi va kondirilmasligi bilan bog'likdir. Bu ehtiyojlarning kondirilmasligi sababli bolada noxushlik (yokimsiz), norozilik, iztiroblanish tuygularini qo'zg'aydi. Katta maktabgacha yoshidagi bolalarda burch hissi – nima yaxshi-yu, nima yomonligini anglashlari bilan ahloqiy tasavvurlari o'rtasida bog'liklik bor. Katta odamlar tomonidan buyurilgan biron topshiriqni bajarganlarida mamnunlik, shodlik tuyg'ulari paydo bo'lsa, biron tartib qoidani buzib qo'yganlarida xafalik, ta'bi xiralik hissi tug'iladi.

---

<sup>16</sup> Sodiqov.Q., Aripova. S.X., SHaxmurova.G.A. "Yosh fiziologiyasi va gigienasi". Yangi asr avlodi. 2009y. (INV-6961) 61 -62 b.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'lik. Bola avvalo maktabga jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi. Uning ogirligi oyiga 150- 200 gm dan buyi esa 0,5 sm dan ko'payadi. 6 yoshli bolalar turli tezliklarda yura oladilar, tez va engil yugura oladilar. Ular yugurib kelib sakrash, kong'kida yugurish, changida uchish, so'zish singari harakatlarni ham bemalol bajara oladilar. Musiqa buyicha mashgulotlarda ham bu yoshdagi bolalar xilma-xil ritmik va plastik harakatlarni bajaradilar, turli mashklarni ham anik, tez, engil va chakkon bajaradilar.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi nafaqat uning akliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligiga ham bog'lik. Maktabga o'qish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy mavqeini - turli majburiyatlari va xuquqlari bo'lgan va unga turli talablar qo'yiladigan - o'quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo'lmog'i lozim.

Bu davrda bolalarda avvalo bilish soxalari so'ngra esa emotsional motivatsion yo'nalish bo'yicha ichki shaxsiy hayot boshlanadi. U yoki bu yo'nalishdagi rivojlashin obrazlilikdan to simvollilikgacha bo'lgan bosqichlarni o'taydi. Obrazlilik deganda bolalarning turli obrazlarni yaratish, ularni o'zgartirish va ularni erkin harakatga solish, simvollilik deganda esa belgilar sistemasi (matematik, lingvistik, mantiqiy va boshqalar) bilan ishlash malakasi tushuniladi. Maktabgacha yosh davrda ijodkorlik jarayoni boshlanadi. Ijodkorlik layoqoti asosan bolalarning konstruktorlik o'yinlarda, texnik va badiiy ijodlarida namayon bo'ladi. Bu davrda maxsus layoqatlar kurtaklarning birlamchi rivojlanishi ko'zga tashlana boshlaydi. Bilish jarayonlarida ichki va tashqi harakatlarning sintezi yuzaga keladi. Biron bir narsani idrok qilish jarayonida bu sintez persentiv harakatlarda, diqqatda ichki va tashqi harakatlar va xolatlar rejasini boshqarish va nazorat etishda, xotirada esa materialni esda saqlab qolish va esga tushurishning ichki va tashqi to'zilmasini bog'lay olishda ko'rinadi. Tafakkurda esa amaliy masalalar ishining usullarini bitta umumiy jarayonga birlashtirish sifatida yaqqol

nomoyon bo'ladi. SHuning asosida insoniy intellekt shakllanadi va rivojlanadi. Maktabgacha davrda tasavvur, tafakkur va nutq umumlashadi. Bu esa bu yoshdagi bolalarda tafakkur qilish omili sifatida ichki nutq yuzaga kelayotganidan dalolat hisoblanadi. Bilish jarayonlarning sintezi bolaning o'z ona tilisini to'liq egallashi asosida yotadi. Bu davrda nutqning shakllanish jarayoni yakunlana boshlaydi. Nutq asosidagi tarbiya jarayonida bolada elementar axloqiy norma va qoidalar egalaniladi. Bu norma va qoidalar bola axloqini boshqaradi.

Bola va atrofidagi kishilar orasida xilma xil munosabatlar yuzaga kelib, bu munosabatlar asosida turli xil motivlar yotadi. Bo'larning hammasi bolaning individualligini tashqil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intellekti balki axloqiy motivatsion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojining cho'qqisi bo'lib, ularning o'z shaxsiy sifatlari, layoqatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglash, o'z-o'zini anglash hissining yuzaga kelgani hisoblanadi.

Kichik yoshdagi bolalar (yangi tug'ilgan bolalarda) asosan organik ehtiyojlar bo'ladi (masalan: ovqatlanish, tashnalikni qondirish, uxlash kabi) maktabgacha gacha tarbiya yoshdagi bolalarda bunday organik ehtiyojlardan tashqari ijtimoiy va intellektual ehtiyojlarning dastlabki kurtaklari yuzaga kela boshlaydi. CHunonchi, maktabgacha gacha tarbiya yoshidagi bolalar xali yaxshi gapira olmasalar ham, xaddan tashqari qiziquvchan bo'ladilar. Ular ko'zlariga ko'ringan har qanday narsani ko'plari bilan timirskilab ushlab ko'rmaguncha tinchimaydilar. Maktabgacha gacha tarbiya yoshidagi bolalarda uchraydigan mana bunday qiziquvchanlik, ularda intellektual ehtiyojlarning yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarda ijtimoiy, intellektual va axloqiy ehtiyojlar yaqqol ko'rina boshlaydi. Agar maktabgacha gacha tarbiya yoshdagi bola uzoq vaqt davomida yolg'iz o'zi biron o'yinchoq bilan mashg'ul bo'lib o'tira olsa, maktabgacha yoshdagi (xususan o'rta va katta guruh bolalari) bola bunday yolg'iz o'ynashga toqat qila olmaydi. Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqini bir muncha to'laroq o'zlashtirganliklari va xaddan tashqari xarakatchanliklari tufayli ularda

o‘zlariga yaqin bo‘lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo‘lish extiyoji tug‘iladi. Mana shuning uchun maktabgacha yoshidagi bolalar tor oila doirasidagi munosabatlar bilan o‘z ehtiyojlarini qondira olmay, kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi qo‘ni – qo‘shnilarining bolalari bilan kollektiv bo‘lib o‘ynaydilar. SHunday qilib, barcha yoshdagi bolalarning ijtimoiy munosabat va faoliyat doiralari tobora kengayib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bola tabiatiga xos bo‘lgan kuchli extiyojlardan yana biri har narsani bilib olishga bo‘lgan ehtiyojidir. Bolaning faoliyat doirasi kengaygan sari atrofdagi narsalarni bilishga bo‘lgan extiyoj ham kuchaya boradi. Bunga sabab unda turmush tajribasining ozligidir. Har bir narsa bola uchun yangilik va binobarin , bola uni har tomonlama bilib olishga intilaveradi. SHuning uchun u doimo son – sanoqsiz savollar beraveradi.

SHuni ham aytib o‘tish kerakki , maktabgacha muxiti (ya’ni undagi tartib , intizom va har turli mashg‘ulotlar) bolalarda yuksak ijtimoiy , intellektual, axloqiy va gigienik ehtiyojlarning garmonik ravishda yuzaga kelishi uchun sharoit tug‘diradi. Psixologiya nuqtai nazaridan qaraganda, odat ehtiyojga yaqin narsadir, ya’ni bizdagi odatlar shu darajada chuqur singib ketib , ehtiyojga aylanib qoladi. Mana shuning uchun bolalarda ijobiy va foydali ehtiyojlarni yuzaga keltirish deganda ularda ijobiy va foydali odatlarni tarbiyalashni tushunamiz. Maktabgacha yoshidagi davrda xosil bo‘lgan mustaqil ijobiy odatlar (ehtiyojlar) kishining butrun umri davomida saqlanib qoladi. “qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan dono xalq maqoli shunchaki aytilgan emas. Maktabgacha ham bolalarni ikkinchi uyi hisoblanadi . SHu erda ular qanday bilim , ko‘nikma va malaka egallagan hamda odatlar orttirgan bo‘lsalar, ularning aksi butun umrlari davomida ifodalanib turadi.

Maktabgacha yoshidagi bolalar xayotida va ularning psixik jihatdan o‘sislarida qiziqishning ham roli katta. Qiziqish xuddi extiyoj kabi, bolani biror faoliyatga undovchi (harakatga soluvchi) omillardan biridir . Qiziqish deganda biz voqelikdagi narsa va xodisalarni birmuncha chuqurroq bilishga qaratilgan maxsus intilishni tushunamiz. Demak qiziqish bilish prosessi bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab psixik xodisadir. Maktabgacha yoshidagi bolalar hamma narsalarga bir

xilda qiziqavermaydilar, ayrim narsalarga esa kamroq qiziqadilar . Lekin maktabgacha yoshidagi bolalarning qiziqishi , katta odamlardagi kabi , bir narsaga nisbatan qat'iy va mustaxkam bo'lmaydi. Bu yoshdagi bolalarni qiziqishlari xali turg'un emas, bir narsadan ikkinchi bir narsaga tez – tez ko'chib turadi.

Bolaning kamol topishi uchun qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga tirishadi va binobarin, uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi (toqati chidaydi). Bu esa , o'z navbatida , bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga va mustahkamlashga yordam beradi. Bundan tashqari , bolalarda biror soxaga nisbatan barvaqt yuzaga kelgan qiziqish kelajakda ularning shu soxani egallashlari uchun qandaydir tayyorgarlik rolini o'ynaydi. Barcha yoshdagi ko'pchilik bolalarning qiziqishlari juda tarqoq va yuzaki bo'ladi. Ular narsa va xodisalarning mohiyati yoki natijasiga emas balki shu narsa va xodisalarning o'zigagina qiziqadilar. SHuning uchun bolalarda beqaror qiziqishklarni yuzaga keltirishga intilish kerak. CHunki bunday qiziqishlarning maktabdagi o'qish prosessiga , ya'ni fan asoslarini o'zlashtirishda roli g'oyat kattadir.<sup>17</sup>

Bolalarning mehnat faoliyatlarini o'zida qamragan mashg'ulotlar asosan maktabgacha yoshidagi davrdan boshlanadi. Bu yoshda bolalarning mehnatlari juda soda va elementar bo'lsa ham ularning psixik taraqqiyotlarida juda katta ahamiyatga egadir.

Maktabgacha yoshidagi bolalar bilan o'takaziladigan suxbatlar natijasida bolalarda mehnatga nisbatan ijobiy munosabat, mehnat qilish dastavval bolalrning o'yinlarida namoyon bo'ladi. Bolalar kattalarning mehnat faoliyatlarini o'zlarining o'yinlarida taqlidan takrorlash bilan cheklanib qolmay, balki kattalar mehnatida bevosita qatnashish uchun harakat qila boshlaydilar. Masalan, qiz bolalar onalari kir yuvayotganda suv tashish, ayrim kichikroq narsalarni (dastro'molchalarni) chayishda qatnashadilar, uy va xovlilarni yig'ishtirib supurishga, ug'il bolalar esa otasi bajarayotgan ishga qatnashishga intila boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar

---

<sup>17</sup> SH.Shodmonova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Fan va texnologiya. -T:, 2008 y. 83 b.

mehnatining natijasi emas, balki mehnat jarayonining o'ziga qiziqishi psixologik jihatdan xarakterlidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ishiga baho berib borish ularda mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. Bolalar kuchlari etadigan ishlarni bajarayotganlarida ko'p xatolarga yo'l qo'yishlari turgan gap. Lekin bunda bolalarni mehnatga jalb qilmaslik kerak, bolalarning bajariladigan ishlarini kattalarning o'zlari bir pasda qilib qo'yishlari mumkin, degan ma'no kelib chikadi. SHarq xalqlarida bir maqol bor: "Bolaga ish buyur, ketidan o'zing yugur". Bu juda to'g'ri, xayotiy gap. Bu bolalarga biron yumush bajarilganda, uni qanday bajarayotganliklaridan ko'z-quloq bo'lib turishlari kerak, degan ma'noni bildiradi.

Bolalarda, xususan, kichik yoshdagi maktabgacha bolalrida xali mehnat malakalari yo'q, qo'l muskullari yaxshi rivojlanmagan bo'ladi.

## BIRINCHI BOB BO‘YICHA XULOSA.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ishiga baho berib borish ularda mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalashda katta rol o‘ynaydi. Bolalar kuchlari etadigan ishlarni bajarayotganlarida ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yishlari turgan gap. Lekin bunda bolalarni mehnatga jalb qilmaslik kerak, bolalarning bajariladigan ishlarini kattalarning o‘zlari bir pasda qilib qo‘yishlari mumkin, degan ma’no kelib chikadi. SHarq xalqlarida bir maqol bor: “Bolaga ish buyur, ketidan o‘zing yugur”. Bu juda to‘g‘ri, xayotiy gap. Bu bolalarga biron yumush bajarilganda, uni qanday bajarayotganliklaridan ko‘z-quloq bo‘lib turishlari kerak, degan ma’noni bildiradi.

Bolalarda, xususan, kichik yoshdagi maktabgacha bolalrda xali mehnat malakalari yo‘q, qo‘l muskullari yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Ana shuning uchun bolalar qasddan yoki anqovliklaridan emas, balki eplay olmasliklaridan biror narsani tushirib, sindirib yuborishlari mumkin. Ana shunday “falokat” yuz bergan paytda bolani “anqov, merov, ko‘zinga qarasang bo‘lmaydimi” deb urinishi yoki koyish yaramaydi. Buning o‘rniga bolaga shu mehnatni qanday qilib bajarishni ko‘rsatib berish lozim.

Maktabgacha da bolalar jalb qilinadigan mehnat faoliyatining turi juda xilma – xildir. Masalan; tabiat burchagidagi jonivor yoki o‘simliklarni parvarish qilish, maktabgacha xovlisida ishlash, oshxonada va guruhda navbatchilik qilish, kichkintoylarni kiyintirishga yordam berish va boshqalar.

SHuni ham aytib o‘tish kerakki, kichik yoshdagi maktabgacha bolalari o‘zlarining mhxnat faoliyatlarini xali yo‘lga qo‘ya olmaydilar. SHuning uchun ular mehnatning juda sodda turlari bilan , ya’ni o‘simliklarga suv quyish, baliqlarga ovqat berish, xovliga suv sepish va shu kabilar bilan shug‘ullanadilar.

O‘rta va katta guruh bolalari mehnat faoliyatini o‘yindan batamom farqlab, unga nisbatan jiddiy munosabatda bo‘la boshlaydilar. Ular mehnatdan kelib chiqadigan natijani, ya’ni mehnatning ijtimoiy mohiyatini, kim uchun , nima uchun lozimligini tushunadilar. Ular kattalarning oiladagi uy – ro‘zg‘or ishlariga zo‘r ishtiyoq bilan yondoshadilar, kichkintoylar uchun qog‘oz, karton paner va

plastilindan turli o'yinchoqlar yasaydilar. Pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil qilingan mehnat faoliyati bolalarning har tomonlama, ham jismoniy , ham psixik, ham estetik, ham axloqiy tomondan barkamol rivojlanishlariga juda katta ta'sir qiladi.

Maktabgacha bolalari biron o'yin , ta'lim yoki mehnat faoliyati bilan mashg'ul bo'lar ekan , ular asosida harakatga soluvchi mayllar yotadi. Kichik maktabgacha yoshidagi bolalarning xatti – harakatlari amalga oshirilayotgan sharoitga bog'liq bo'ladi. Ular xatti – harakat motivlarini anglab ham etmaydilar. SHuning uchun ko'pincha o'zlaricha mutlaqo xisobot bermay , ma'lum bir vaziyatda u yoki bu xatti – harakatni amalga oshira boshlaydilar .

## **II- BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KASB-HUNARGA QIZIQISHNI UYG‘OTISH USUL VA VOSITALARI**

### **2.1. MEHNAT TARBIYASI BERISH ORQALI KASB-HUNARGA QIZIQISH UYG‘OTISHNI TARKIB TOPTIRISH**

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy munosabatlar mazmuni yangilanayotgan ayni paytda o‘tib kelayotgan yosh avlodni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashni yangicha asoslarda, bir tomondan, milliy pedagogik qadriyatlarimiz zaminida, ikkinchidan, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda olib borishga ijtimoiy zaruriyat sifatida qaralmoqda. Chunki mehnat ijtimoiy taraqqiyotning manbai, barcha moddiy va ma’naviy ehtiyojlarni qondirishning asosiy shart - sharoitidir. Demak, mehnat inson faoliyatining asosiy shakli, kishi hayotining mazmuni, har bir jamiyat a’zosining vazifasi, shaxs tarakkiyotining asosi-dir. Mehnat qadimdan jamiyatning axloqiy tamoyili hisoblanib kelgan, moddiy va ma’naviy madaniyatning hamda ijtimoiy taraqqiyotning negizi hamdir. Mehnat faqat shaxsiy moddiy farovonlik manbaigina bo‘lib qolmay, balki xalqqa xizmat qilish, vatan uchun qayg‘urish, shaxsiy manfaatdan xalq manfaatini ustun qo‘yishning asosi hamdir.

Ta’lim tarbiya jarayonida mehnat tarbiyasini bolalarga yangicha singdirish, ularda mehnat qilishga ishtiyoq o‘stirish, mehnat natijasidan zavqlana bilish kabi hislarni tarkib toptirish orqali ularda mehnat ahliga hurmatni, jamiyat foydasiga mehnat qilish qobiliyatini, fidoyilik va mehnatga ijodiy munosabatda bo‘lish kabi axloqiy sifatlarni tarkib toptirish lozim.

Bolalarni mehnatga o‘rgatishda, eng avvalo, ularni psixologik va amaliy tayyorlash: jamoada mehnat qilish ko‘nikmalarini tarbiyalash muhim rol uynaydi. Mehnatga ruhiy, aqliy va amaliy tayyorlash jarayonida yoshlarda mehnatsevarlik, shijoat, fidoyilik, halollik, intizomlilik kabi sifatlarni shakllanishi bilan birga ularda axloqiy – irodaviy xususiyatlar ham shakllanib boradi. Ayniqsa, mehnat madaniyati ko‘nikmalarini tarbiyalay borish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki madaniyatli qilish mehnatsevar bo‘lib etishadi. Shunday ekan, mehnatni sevmaydigan va qadrlamaydigan odamdan madaniyatli kishi chiqmaydi.

Insonning ongliligi, tarbiyalanganligi avvalo mehnatga bo'lgan munosabatida ko'rinadi. Mehnat insonni ulug'laydi, go'zallikka chorlaydi. Mehnatsiz turmush mazmunsiz, deyiladi. Mehnat qilmaydigan insonning hayoti zerikarlidir. Unday inson ma'naviy qashshoq va jismonan zaif bo'ladi. Uzoq umr ko'rishning siri ham mehnatdir. Mehnat qilmasang xatto iste'dod ham so'nadi. Mehnat har qanday qobiliyatni rivojlantiradi. Mehnatga bolalar dastlab oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida va tarbiya jarayonining butun tizimida o'rgatilib boriladi. Bolalar bog'chasida va oilada bajariladigan uncha murakkab bo'lmagan har bir topshiriq uning kundalik vazifasiga aylanishi kerak.

Bola mehnatning ahamiyati va madaniyatini tushunib etish uchun pedagog kattalarning mehnati, bolalarning o'zlari bajaradigan mehnat turlarini kuzatish yuzasidan ekskursiyalar uyushtiradi. Bolalarning har xil mehnat jarayonida ishtirok etishi, kattalar mehnati bilan tanishtish ularning tevarak atrofdagi haet, kishilarning o'zaro munosabatlari to'grisida narsalar va ularning xususiyatlari, materiallarga ishlov berish usullari, qurilmalar va asboblari to'g'risida muayyan taassursslarga ega bo'lishlariga yordam beradi.

Mehnat bolalardan diqqat, o'tkir zehn, topqirlik, ijodkorlik qobiliyatlarini egallashni talab etadi. Mehnat jarayonida bolalar ayrim ish turlarini (bir- varaq qog'ozni buklash, biror bir shaklni andozaga qarab qirqish, kerakli o'zunlikni o'lchash kabi harakatlarni) anglatuvchi bir qancha tushuncha va atamalardan foydalanishga, bajarilgan ishdagi izchillikni berishga to'g'ri keladi. Bu bola nutqini yangi so'zlar bilan boyitadi, fikrlashi, dunyoqarashini shakllantirishga imkon beradi. Mehnat har bir yosh guruhidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan, unga to'g'ri nazorat yoki rahbarlik qilgandagina ijobiy natija berishi mumkin. V.I. Loginovning ta'kidlashicha, bolalarga mehnat tarbiyasi berish uchun ular mehnat va mehnat malakalari to'g'risidagi bilimlar sistemasini o'zlashtirib olishlari kerak bo'ladi:

1. Mehnat maqsad va uning natijasini belgilab olishdan boshlannadi (maqsad - mehnat tasviri).

2. Mehnat qilishdan koʻzlangan maqsad boʻyicha kerakli materiallarni tanlab ajratib olish.
3. Materialni ishlash uchun kerakli asboblarni tanlab ajratib olish.
4. Natijaga erishish uchun mehnat harakatlarini bajarish.

SHunday qilib, maktabgacha tarbiya yoshi davrida mehnat faoliyati shakllantiriladi. Maktabgacha tarbiya yoshi davrining oʻziga xos tomonlaridan biri bolalar mehnatining oʻyin bilan bogʻliqligidir. Oʻyin jarayonida biror harakat doimo biror mehnat jarayonini aks ettirishga yoʻnaltirilgan boʻladi. Ikkinchi tomondan, mehnat jarayonini bajarishda uni oʻyin shakliga aylantirishadi.

Mehnat tarbiyasining vazifasi xilma-xil boʻlib ularni guruhlar buyicha quyidagicha turkumlarga ajratiladi.

1. Birinchi guruh vazifalari: bolalarning mustaqil mehnat faoliyatiga pedagogik yondoshuv, bolalarni maqsad asosida mehnat malakalari, koʻnikmalari hamda mehnat madaniyati boʻyicha kerakli material va qoʻllanmalarni tanlashga oʻrgatish;
2. Bolalarda mehnat faoliyatiga qiziqishni va mehnatda ijobiy natijalarga erishish malakalarini shakllantirish;
3. Mehnat faoliyati jarayonida bolalar mehnatining ijtimoiy ahamiyatli ekanligini tushunib etishish.

Ikkinchi guruh vazifalari bolalarda kattalar mehnatiga ijobiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan:

1. Bolalarda kattalarning mehnati orqali erishayotgai yutuqlari haqida tushuncha berish.
2. Bolalarda mehnat ahliga hurmatni va ulardan oʻz yordamini ayamaslik haqidagi xohishlarini tarbiyalash.

Uchinchi guruh vazifalari bola shaxsini shakllantirishga qaratilgan mehnat faoliyati bilan bogʻliq. Bolalarda mehnatsevarlik orqali mehnatda qatnashish, boshlagan ishini oxiriga etkazish, oʻzining mehnatiga nisbatan toʻgʻri munosabatni tarbiyalash javobgarlik, katʼiylik, sabr matonatlilik, chidamlilik, oʻzi va oʻrtoklarining mehnatini holisona baholash tarbiyalanadi.

Mehnat ijtimoiy taraqqiyotning asosi barcha moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish sharti bo'lishi bilan birga ayni vaqtda inson hayotining asosiy shakli, mazmuni sifatida barcha xalqlarning eng asl farzandlari-mutafakkirlari, olimu fozillarining diqqat markazida bo'lgan.

SHoir Abu SHukur Balxiyning mehnatni ulug'lovchi quyidagi satrlarini keltirish mumkin:

Orzu tilak yo'li mehnat tagida

Xazinaning mo'li mehnat tagida

Alisher Navoiy, Furqat, Muqimiy, Hamza va boshqalar mehnatning insonni ma'naviy go'zallashtiruvchi roliga, mehnatsevarlikni tarbiyalashga va mehnat ahlini qadrlashga katta o'rin beradilar.

Qadimda ota – bobolarimizning mehnat haqide aytgan dono naqlari hozirga qadar ham o'z qadrini yuqotmagan.

Mehnat qilsang ko'ksing tog',

Hurmat qilsang, diling bog'.

Mehnatli non – shakar, Mehnatsiz non zahar .

Mehnat baxt keltirar.

Mehnat qilib topgaining Qandu asal totganing.

Bu maqollar orqali dono xalqimiz mehnatni ulug'laydi, uning samarasi haqida fikr yuritadi. O'zbek bolalar yozuvchi va shoirlari ham kattalar mehnatining mazmunini yoritib berganlar. Bunga

Q.

Muhammadiyning «Etik», «Bir hovuch yongoq» kabi she'rlari misol bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar mehnatining mazmuni mehnat tarbiyasining mazmuni va bolalarning imkoniyatlari bilan belgilanadi

Maktabgacha ta'lim muassasalari ishi mazmuni «Bolajon» dasturida har bir yosh guruhiga alohida ko'rsatib o'tilgan. Mehnat faoliyatida va bolalarning mehnat jarayonida tarkib topadigan shaxsiy fazilatlariga qo'yiladigan talablarning asta-sekin murakkablashib borishi masalalariga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Mehnat tarbiyasiga oid bilimlar bolalarning shaxsiy mehnat faoliyatining shakllanishi, uning tashkil etilishi, rivojlantirilishi, natijalariga ta'sir etadi. Bolalar

kattalarga taqlid qilib, mehnat jarayonini yaxshiroq va maqsadga muvofiq qilib bajarilishini o'rganib boradilar. Egallagan bilimlari orqali mehnatga to'g'ri munosabat, unga qiziqish, mehnat faoliyatida kattalarga taqlid qilishga intilish, buyumlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish hissinini shakllantirishga asos bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat faoliyatining shakllanishida kattalarning mehnat faoliyati muhim rol uynaydi. SHuning uchun bola mehnat jarayonlariga kirishishdan oldin mehnatning asosiy tarkibiy qismlarini ajratib olishi va anglab etishi, meqnat malakalarini o'zlashtirishi zarur.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali ularga kattalarning mehnati ijtimoy foydali mehnat bo'lib, narsa va buyumlarni yaratishga qaratilganligi, ular har bir inson uchun va butun xalq uchun zarur ekanligi to'g'risida tushuncha berib boriladi.

Masalan: o'simliklar va hayvonlarni parvarish qilish orqali ulardan olinadigan mahsulotlar kimlar uchun va nima maqsadda ishlatilishi to'g'risida bilim va tushunchalar berib boriladi. Kattalarning mehnati bilan tanishtirish kattalar mehnati to'g'risida aniq bilim va tasavvurlar berish, mehnatni va mehnat natyjarini qadrlashga o'rgatish, mehnatga qiziqish va muhabbat uyg'otish, mehnat kilish hohishini tarbiyalash va ishning sifatli bajarilishiga o'rgatishni ko'zlab ham amalga oshiriladi.

Kattalar mehnati bilan tanishtirishning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

- har bir kishi mehnatining ijtimoiy mohiyati;
- mehnat ahli o'rtasidagi ijobiy munosabat;
- har qanday kasb ham muhim ekanligini tushuntirish;
- mehnat faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari bilan tanishtirish;
- mehnatning maqsadi, uning ijtimoiy ahamiyati;
- materiallarni tanlash (mehnat materiallari);
- jihozlash (mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan asboblarni tayyorlash)

Bolalar kattalar bilan birgalikda mehnat qilishlari orqali mehnat malaka va ko'nikmalarini tez va oson egallab oladilar, ularning kattalar mehnati to'g'risidagi bilimlari boyitdi, bunday mehnat bolalarga quvonch bag'ishlaydi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar quyidagi mehnat turlariga jalb qilinadi o'z - o'ziga xizmat qilish,-xo'jalik va maishiy mehnat, tabiat quchog'idagi mehnat va qo'l mehnati.

O'z - o'ziga xizmat qilish - bolalar mehnatining bir turi bo'lib, unda bolalar ilk yoshdan boshlab mustaqil ovqatlanish, yuvinish, kiyinish va echinishga, o'yinchoqlarni yig'ishtirib qo'yishga o'rgatiladi, o'z - o'ziga xizmat qilish jarayonida bolalarda mustaqillik, ma'lum maqsad bilan harakat qilish kabi sifatlar shakllanadi. Bolalar qo'llaridan kelgan ishni mustaqil bajarishga o'rganadilar. O'z - o'ziga xizmat bolalarda oddiy mehnat turlariga nisbatan qiziqish uygotadi, batartiblik, intizomli bo'lishga ham odobga urgatadi.

Bolalar xo'jalik - maishiy mehnatga bolalar bog'chasida va oilada jalb etiladi. Uning mazmuni har xil bo'ladi: xona va bog'cha maydonchasini, xonani yig'ishtirish, idish - tovoqlarni yig'ishtirish, choy idishlarini, qo'g'irchoq kiyimlarini, mayda narsalarni yuvish, mashg'ulotga kerakli materiallarni tayyorlab qo'yish, mashg'ulotdan keyin stol ustidagi narsalarni yig'ishtirib olish.

Tabiatdagi mehnat bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'simlik va hayvonlar, yil fasllari, jonsiz tabiat to'g'risidagi bilimlar manbai, bolalarda mehnatsevarlikni, tabiatga ehtiyotkorona munosabatini tarbiyalashda muhim sanaladi. Qo'l mehnati mashg'ulot, o'yinlarga, mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan o'yinchoq va qazilmalarni tayyorlash bo'yicha bolalar mehnatidir.

Bolalarning jamoa mehnati dastlabki jamoatchilik asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Jamoa mehnatida birgalikda harakat qilish, o'zaro yordam, shu bilan birga mehnat taqsimoti ham mujassamlashgan bo'ladi. Birgalikdagi mehnatni, masalan, xonani yig'ishtirishda, tabiatdagi mehnatda etish mumkin. Bu erda bolalarning ish-xarakatida o'zaro mutanosiblik bo'lishi, ya'ni har bola bir xilda

chaqqonlik bilan harakat qilishi kerak, buning natijasida ma'lum mehnat munosabatlari yuzaga keladi. Bunday vaziyatda tarbiyachining bolalar o'rtasida to'g'ri munosabatni o'rnatishga qaratilgan bevosita rahbarligi muhim sanaladi.

Bunday rahbarlik ma'lum izchillikda amalga oshiriladi:

1. Mehnat malakalarini shakllantirish
2. Bolalarning - umumiy mehnatini tashkil etish.
3. Bolalarning birgalikdagi mehnatini tashkil etish.

Bolalar bog'chasida mehnat tarbiyasining vazifalari va mazmunini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kerakli shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Bolalar mehnati uchun avvalo joy, vaqt, gigienik sharoitlar yaratilmog'i lozim, ozodalik, toza havo, kerakli darajadagi yorug'lik, mehnatning bolalar imkoniyatini muvofiq bo'lishi, mehnat vaqtini bolalar yoshiga qarab to'g'ri belgilash (kichik yoshli bolalar uchun 10-12 daqiqa, katta guruh bolalari uchun 15-20 daqiqa). Bolalar harakatlarini almashtirib turishni ham e'tiborga olish kerak. Bolalarga to'g'ri mehnat tarbiyasi berishda kattalarning bir - biri bilan o'zaro do'stona munosabatda bo'lishi, hamkorlikda ishlashi ijobiy natija beradi. Ayniqsa tarbiyachining har qanday mehnatta nisbatan vijdonan munosabati, uning har xil kasb egalariga hurmat bilan qarashi katta ahamiyatga egadir, Mehnat ta'limi jarayonida va uni tashkil etishning hamma shakllarida har xil metod va usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi, bular quyidagilar:

- har bir mehnat jarayonini namuna asosida tushuntirib borish;
- bo'lajak mehnat faoliyati to'g'risida uning mahsulini ko'rsatish orqali suhbat;
- tarbiyachining hikoyasi.
- bolalarni mustaqil ishlashlarini mashq qildirish;
- o'yin - mashqlar va didaktik o'yinlar.

Butun mehnat jarayonini va uning ayrim qismlarini ko'rsatish, tushuntirish, eslatish, nazorat qilish, o'z-o'zini nazorat, bajarilgan ishni baholash ayniqsa zarur.

Mehnat tarbiyasi masalalari bog'chani yillik rejasida aks ettiriladi va tarbiyachilarga mehnat tarbiyasini to'g'ri rejalashtirish va amalga oshirishda yordam beradi. Bolalar bog'chasida mehnat tarbiyasining to'g'ri tashkil etish va unga rahbarlik qilish yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash vazifalarini amalga oshirishga yordam beradi.

Mehnat tarbiyasi - o'sib kelayotgan yosh avlodda mehnatga qiziqishni shakllantirish, demokratik huquqiy jamiyatni qurishda amaliy ishtirok etishga intilishni tarkib toptirish kabi aniq maqsadga qaratilgan jarayon bo'lib, mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Demak, mehnat tarbiyasi bolalarning mehnat faoliyatiga doir bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga olgan mehnat tajribasini muvaffaqiyatli o'zlashtirib olishi, ularda mehnat hamda mehnat ahliga hurmat uyg'otish, shaxsni har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan. SHuning uchun ham yosh avlodga mehnat tarbiyasini berish dolzarb sanaladi. Zero mehnat har bir kishi kamoloti va umuman jamiyat ravnaqida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat jarayonida har bir bolaning yosh xususiyatlarini inobatga olish muhim. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar mehnatining o'ziga xos tomonlari olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Mehnat jarayonida kishining ijtimoiy ongi tarkib topadi. Mehnat yordamida bolalarda bir-birlariga yordam qilish, birgalikda ishlash, umuman birgalikda faoliyat yuritish ko'nikmalari shakllanadi. Jamoa bo'lib ishlash mehnatda kuchning va jamoa kuch-g'ayratining foydasini tushunish, birlashishga intilish tuyg'ularini tarbiyalaydi. Mehnat inson shaxsining psixik va axloqiy jihatdan shakllanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnatning ahloqiy jihatdan qimmatini uning jamiyat uchun ahamiyati bilan belgilanadi. SHuning uchun ham bolalarga ularning qo'lidan keladigan, ijtimoiy ahamiyatli vazifalarni qo'yish muhim sanaladi. CHunki o'z mehnatining ijtimoiy

ahamiyatini tushunish har bir bolaning jamiyat hayotiga kirib borishi va o'zini uning foydali a'zosi sifatida his etishiga imkon beradi. Qolaversa, ilk yoshlikdan boshlanadigan fuqarolik tarbiyasining asoslari ham mana shunda. Har bir bola avvalo o'zini oila, bog'cha, maktabdagi mehnat jarayonining ishtirokchisi, o'z mehnatini umumiy ishning bir qismi deb baholashi kerak. Mehnatni bunday tashkil etash bolalarda jamoa bo'lib faoliyat yuritishni hamda ko'pchilik oddida o'zini tuta bilishga o'rgatadi. SHunga ko'ra bolalarni tarbiyalashda jamoa mehnat turlari ayniqsa muhim sanaladi. Bolaning aqliy rivojlanishida mehnatning ahamiyati katta: u olam, borliq atrof - muhitni idrok etish imkonini beradi. Demak, maktabgacha tarbiya yoshidan boshlaboq mehnat qilish bolalarni zestetik hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga olib keladi. Bu o'rinda tarbiyachi bolalarni mehnatga ularning jismoniy va ruhiy xususiyatlarini inobatga olgan holda jalb qilishi zarur sanaladi. Tarbiyachi bolalarda mehnat malakalarini tarkib toptirishda dastavval ishni material va asboblarni tanlash, ulardan to'g'ri foydalanish, natijaga erishish malakalarini tarkib toptirishga z'tibor qaratishi zarur. SHuningdek, bolalarning bog'chadagi mehnatini ularning turmushi, o'yinlari bilan bog'lash hamda mehnat tarbiyasini har tomonlama rivojlantirish vazifalaridan ajratib qo'ymaslik alohida ahamiyat kasb etadi. Maktabgachga tarbiya yoshidagi bolalarning yosh va jismoniy xususiyatlarini inobatga olib ko'proq unumli mehnatga jalb qilishdan ko'ra kattalar, mehnatining ijtimoiy xususiyatlarini ta'kidlagan holda bolalarni ularning mehnati bilan tanishtirib borish tarbiyada ijobiy munosabatni tarkib toptiradi. Demak bolaning imkoniyatlarini inobatga olib maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar mehnatini o'yin bilan, kichik yoshdagi maktab bolalarining o'qishini esa uy yumushlari bilan bog'lash zarur. Bu o'rinda mehnat tarbiyasining metodlariga tayangan holda bolalarga. topshiriklarni berish, bajarish usullarini ko'rsatish, ishni nazorat qilish ularni mehnatga jalb qiliga hamda qiziqish, quvonch bilan ishlash va mehnat sifatiga erishishini ta'minlashga olib keladi.

Demak mehnatga qiziqish, odatlanish, uning zarurligini tushunish, mehnat ko'nikma va malakalari kundalik amaliy ishlarda hamda har xil ijtimoiy faoliyatda

tarkib topadi. Bunday muayyan mehnat turidan qobiliyat nishonalari ham vujudga keladi.

Mehnat tarbiyasining birinchi vazifasi mehnatga psixologik va amaliy tayyorlikni tarkib toptirishdir. Har bir inson mehnat qilmasdan moddiy boyliklar ishlab chiqarish umumiy jarayonida ishtirok etmasdan yashay olmasligini aniq tushunib etish. Mehnatning ijtimoiy ahamiyatini tushungan kishi yaxshi bajarilgan ishdan quvonadi, ishidan baxt topadi, ishining samarasini his qiladi. Bunday ilhomlantiruvchi sabablar natijasida mehnat shaxsni har tomonlama rivojlantirish vositasiga aylanadi. Aksincha, faqat moddiy boylik to'plash uchungina qilinadigan mehnat kishini qashshoqlashtiradi, shaxsning salbiy sifatlarini hosil qiladi. SHuning uchun mehnat tarbiyasining yana bir vazifasi – mehnat faoliyatining ijtimoiy sabablarini tarkib toptirishdan iboratdir. Mehnat tarbiyasining navbatdagi vazifasi yosh avlodda mehnat madaniyati, ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mehnatga hurmat xamda uning natijalari - ijtimoiy va shaxsiy mulkni ehtiyotlash kabi sifatlarni tarkib toptirish; qobiliyat va qiziqish orqali ixtiyoriy kasbni tanlash maqsadida yosh avlodda mehnat turiga qiziqishni oshirishdan.

YOsh avlodning mehnat tarbiyasi vazifalarini amalga oshirish uchun quyidagi vositalarda keng foydalaniladi. Mehnat faoliyati, uning turlari, uni tashkil etishning ilmiy asoslari bilan keng tanishtirish, yosh avlodning mehnat tarbiyasi, qo'lidan keladigan mehnat turlarini bajarish.

Demak, bolalar mehnati jismoniy kamolot uchun ham katta ahamiyatga ega, mushaklarning faolligi, jismoniy zo'r berish bolaning organizmdagi barcha sistemalarining ish faoliyatini oshiradi, mehnatdagi harakatlar, ularning muvofikligi, uyg'unligi, ixtieriyligi takomillashib boradi. Mehnatdagi maqsadga erishish ijobiy hissiy holatni keltirib chiqaradi, bolaning ish faoliyatini oshiradi.

## 2.2. KASB-HUNARGA QIZIQISHNI UYG‘OTISHDA O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Jamiyatning ma’naviy takomili unda amalga oshiriladigan ta’lim - tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog‘liqdir. SHu boisdan ham ta’limdagi yangilanishni, respublikamizda amalga oshirilayotgan bosqichma - bosqich ta’lim tizimini pedagogik talqin qilish, bu jarayonni samaradorli kechishini ta’minlash zaruriyati yuzaga keladi.

Ma’lumki, bolalarning asosiy vaqti o‘yin bilan o‘tadi. O‘yin - maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bo‘lib hisoblanadi. O‘yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub’ekti sifatida shakllana boshlaydi. O‘yin uzoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog-psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o‘ziga qaratib kelgan.

O‘rta Osiyo madaniyati tarixida oilada farzand tarbiyasiga juda katta e’tibor qaratilganligi, mashhur allomalardan Abu Nasr al Forobiy, Abu Ray’on Beruniy, Abu Ali ibn Sino, YUsuf xos Xojib Axmad YUgnakiylar o‘z asarlarida xalqimizga xos bo‘lgan farzand tarbiyasi muhim omillari ustida fikr yuritganlar.

Xalq pedagogikasini o‘rganish davomida olimlarning farzand ta’lim - tarbiyasi va odob – axloqqa oid asarlarida, bolalarni tarbiyalashda tarbiyaviy ishning eng ta’sirchan uslubi - o‘yin shaklidan juda keng foydalanganligini ko‘ramiz. O‘tmish pedagog olimlaridan P.F.Lesgaft, K.D.Ushinskiy tomonidan o‘yin nazariyasi ishlab chiqilgan. O‘yinning mehnat jarayoni asosida paydo bo‘lganligi va uning yosh avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlashdagi roli, o‘yin mazmunining bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyatini K.D.Ushinskiy asoslab berdi.

V.G.Plexanov san’atning kelib chiqishini tadqiq qilayotganda bolalar o‘yinlariga e’tibor qiladi. Uning fikricha, kishilik tarixida o‘yinlar san’at kabi mehnat paydo bo‘lgandan so‘ng va uning asosida vujudga kelgan. U,- “O‘yinda

kattalarning mehnat faoliyati o'z aksini topadi, o'yin mehnat farzandi, u mehnatdan oldin paydo bo'lgan hodisadir",- deb yozgan edi.

Jamiyat hayotida mehnat jarayonida bolalar kattalar mehnatiga taqlid qilish orqali o'ynaydilar, xuddi shu o'yin keyinchalik bolalarni mehnat faoliyatiga tayyorlashda muhim bosqich bo'lib hisoblanishini asoslab, o'yinni obrazli, hayotni haqqoniy aks ettiruvchi jarayondir, degan edi V.G.Plexanov.

P.F.Lesgaft "Bolaning dastlabki o'yini tevarak – atrofdagi voqea - hodisalarga taqlid qiladi, o'yin ijtimoiy voqelikni aks ettiradi",- deb izohlagan edi.

Buyuk psixolog D.V.Elkonin o'yinning kelib chiqishida yangi Qoyani ilgari suradi jamiyatning dastlabki taraqqiyotidayoq bolaning kattalar hayoti va mehnatida ishtirok etishi bolalarning mehnat qilishlari uchun qulay o'yinchoq mehnat qurollari ishlab chiqilgan.O'yinchoq qurollar paydo bo'lishi natijasida rolli o'yinlar paydo bo'ladi. D.V.Elkonin kattalar mehnatida ishtirok etish orqali bolada mehnat qilishga intilish hissini uyg'otish zarurligi Qoyasini isbotlab bergan.

Maktabgacha pedagogikada o'yin nazariyasi ijtimoiy faoliyat hisoblanib, mehnatning tarixiy rivojlanish jarayonida paydo bo'ladi. O'yin doimo hayotni aks ettiradi. SHuning uchun uning mazmuni ijtimoiy voqelikda o'zgarib turadi.O'yin – maqsadga qaratilgan o'ylangan jarayondir.O'yin jarayoni asosida uquv faoliyati rivojlanadi. Bola yoshligida qancha ko'p o'ynasa, maktabda yaxshi o'qishiga va keyinchalik mehnat faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'yin nazariyasining asosiy masalalari quyidagilardan iborat:

1. O'yinning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari;
2. O'yinning bola hayoti va tarbiyasidagi o'rni.

O'yinning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.

O'yin - buyumli-predmetli va ijtimoiy voqelikda harakat qilish va uni anglashga yo'naltirilgan jarayondir. U o'zining kelib chiqishi ko'ra, yo'nalish va mazmuniga ko'ra ijtimoiy voqelik hisoblanadi.O'yin, bu bola faoliyatining yorqin turi. Unda maqsadning mavjudligi, sabablar, amalga oshirish vositalarining rejali harakatlari natijaning mavjudligi uning o'ziga xosligidir. Xususiyatlarning orasida sabablarning o'ziga xosligi asosiy hisoblanadi.O'yin jarayonida bolaning psixik

bilish jarayoni, irodasi, hissiyoti, ehtiyoji va qiziqishlari, ta'sirchanligi – uning butun shaxsiyati shakllanadi.

Bola o'yinda amaliy ehtiyojlarga qaram bo'lmaydi. Bunda u o'zining bevosita ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqadi. Bolalarning o'yinlari o'zining rang – barangligi bilan ajralib turadi. O'yin o'z mazmuni va tashkil etilishiga ko'ra, bolalarga ta'sir ko'rsatish darajasi, buyumlarning turlari va kelib chiqishiga ko'ra ijodiy va qoidali o'yinlarga bo'linadi.

Ijodiy o'yinlar bu bolalarning mustaqil ijodiy, o'zlari o'ylab chiqqan o'yin majmuidir. Bunda bolalar o'z taassurotlari, borliq hayotdagi tushunchalari va unga bo'lgan o'z munosabatlarini aks ettiradilar. Ijodiy o'yinlar quyidagi turkumlarga bo'linadi:

- syujetli-rolli;
- dramalashtirilgan;
- qurilish;
- tabiat materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlar.

Ijodiy o'yinlar va ularga rahbarlik. Ijodiy o'yinlar boshqa tur o'yinlardan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. O'yin mazmunining o'ziga xosligi.
2. Rollarning mavjudligi.
3. Xayoliy vaziyatning mavjudligi.

O'yin mazmunining o'ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Pedagog va psixologlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, kattalarning ijtimoiy hayoti o'zining rang-barang ko'rinishlari bilan syujetli-rolli o'yinlarning mazmuni bo'lib xizmat qilar ekan. Ular bolalar kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turi o'yin ekanligini asoslab berdilar.

Ijodiy o'yinlar syujetlari va mazmunining rang-barangligi, ularni tavsiflash zaruratini keltirib chiqaradi. Syujet o'yin faoliyati tizimida asosiy komponent sifatida o'z ichiga personajni, hayotiy vaziyatni, harakat va personajlar munosabatini oladi. Ijodiy o'yinlarda xayoliy vaziyatning mavjud bo'lishi bolaning tafakkurini o'stirib syujet va rollar o'yin mazmunini takomillashtiradi. Ijodiy

syujetli-rolli o'yinlarning o'ziga xos sabablari mavjuddir. Buning eng asosiy sababi – bolalarning kattalar bilan birgalikda ijtimoiy xayot kechirishga intilishidir. Bu sabablar bolaning yoshiga qarab, o'yin mazmuniga qarab o'zgarib boradi. Kichik yoshdagi bolalarda asosiy sabab buyumlar bilan bajariladigan qiziqarli harakatlar bo'lsa, bola katta bo'lgan sari o'yindagi kattalar harakatlarini va munosabatlarini qayta aks ettirish asosiy sabab bo'lib xizmat qiladi. SHunga ko'ra, o'yinlarni syujeti, mazmuniga ko'ra 3 guruhga bo'lish mumkin.

1. Maishiy o'yinlar (oilalar, bolalar bog'chasi va boshqa voqelikni aks ettiradigan).
2. Mehnat mavzuidagi o'yinlar (oilalar va kattalar mehnatida ishtirok etish, o'z-o'ziga xizmat va boshq.).
3. Ijtimoiy mavzudagi o'yinlar.

Bolalar rollarni tanlab o'ynaydilar. Syujetli-rolli o'yinlarda xatti-harakatlarni, qoidalarini egallash asosida, rolda mujassamlashtirilgan axloqiy qoidalar ham o'zlashtiriladi. O'yinda kishilar turmushiga, ishlariga, jamiyatdagi xulq-atvor me'yor va qoidalariga ijobiy munosabat shakllantiriladi. Xuddi shu jarayonda o'yin muomala madaniyatini shakllantirish vositasi sifatida ham yuzaga keladi. Aqliy tarbiyaning asosiy vositalaridan biri bu syujetli o'yin hisoblanib, unda bola atrof-muhitdagi voqea va hodisalarni aks ettirib, xayolan ularni qayta tiklaydi. O'yinning xayoliy vaziyati bolaning aqliy faoliyatining rivojlanishiga doimo ta'sir ko'rsatadi.

D.B.Elkonin syujetli-rolli o'yinni birgalikda o'ynaladigan o'yinda tasvirlanayotgan voqealarga, harakatlarga, buyumlarga nisbatan o'z nuqtai nazarini boshqalar nuqtai nazari bilan jamlash masalasi shakllanishi natijasida yalpi tafakkur bosqichiga o'tishga imkon beruvchi bilishga oid jarayon yuz berishini ta'kidlab o'tgan.

O'yinning san'atga yaqinligi syujetli-rolli o'yinlardan estetik tarbiyada foydalanish imkonini yaratadi. Bola o'yinidagi ijodkorlik bilan bog'liq bo'lgan tuyQular estetik tuyQularga yaqin turadi. O'yinda bolaning katta harakat tajribasi shakllanadi. Turli harakatlarni rivojlantirish va takomillashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi, bola rolga kiradi, o'z roliga oid xatti-harakatlarni amalga

oshirish uchun tasvirlayotgan rollarning o'ziga xos xususiyatlarini ongli ravishda ifodalaydi.

Ikki yoshdagi bolalar hayotida syujetli o'yinchoqlar bilan juda oddiy o'yinlar o'tkaziladi. Bolalar bu o'yinchoqlarni qo'lda ushlab yuradilar, siqib ko'radilar, erga tashlab ko'radilar, o'yinchoqlarni Qildiratadilar, o'yinchoqda nima tasvirlanganligiga e'tibor bermaydilar. Bu yoshda kundalik hayotda tevarak – atrofdagi katta kishilar va bolalar harakatini kuzatib borishni, bu harakatlarni o'z o'yinlarida aks ettirishni o'rgatish lozim: qo'Qirchoqni ovqatlantirish, uyquga yotqizish va boshq.

Bu yoshda buyumli o'yin bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

1 bosqichda bolalar o'yinchoqlar bilan kattalar harakatlariga taqlid qiladilar.

2 bosqichda o'zlashtirgan harakatlarni mustaqil bajara boshlaydilar, so'ngra bu harakatlarni boshqa buyumlarga ko'chiradilar.

3 bosqichda tasviriy o'yin vujudga keladi, uning mazmunini shartli qurollar bilan bajariladigan harakatlar tashkil qiladi.

Bola kundalik hayotda kuzatgan buyumlar bilan bajariladigan harakatlarga taqlid qiladi (gazeta o'qiydi, er chopadi, kir yuvadi), bularning hammasi syujetli – rolli o'yin uchun sharoit yaratadi.

Uch yoshga qadam qo'ygan bolalar bilan suhbatlar, kuzatishlar o'tkazish, hikoya va ertaklar o'qib berish, maslahat berish va o'yinlarga qiziqtirish kerak. O'yinda bolalarni katta ish-harakatining faqat tashqi tomonigagina taqlid qildirmay, balki ularni odamlarga, mehnatga bo'lgan munosabatlariga ham taqlid qildirish, bolalarda ahillik bilan o'ynay olish, rollarni taqsimlay bilish, ko'zlangan maqsadga erisha olish, tortinchoq va uyatchan bolalarga loyiq rollarni taklif qilib, ularning o'yinga qo'shilishiga yordam berish kerak. Bolalarda xayol tasavvurlarini o'stirish ularda mustaqil biron yangi o'yinni ijod etish, bu o'yinga kerakli narsalarni tanlash, binolar qurish, ba'zi o'yinchoqlarni o'z qo'li bilan yasash, badiiy mashg'ulotlarda orttirgan malakalarini o'yinda qo'llash, qo'shiqlar aytish, she'r o'qish, chizgan rasmlardan va yasagan narsalardan foydalanish istagini uyg'otadi.

Jamoa o'yinining paydo bo'lishi uning mavzui va mazmunini ham, tuzilishini ham tez rivojlantirish va o'zlashtirish imkonini yaratadi. Bolalar o'yinlari mavzuining o'zgarishida maishiy o'yinlardan mehnat, ishlab chiqarish syujetiga ega bo'lgan o'yinlarga, so'ng turli ijtimoiy hayot voqea va hodisalari aks ettiriladigan o'yinlarga o'tiladi. O'yinning mazmuni ham rivojlanadi.

Katta yoshli bolalar hayotida harakatlar qatorida xilma - xil ijtimoiy munosabatlar, xatti-harakatlar ham aks eta boshlaydi. O'yinlar mavzui doirasining kengayishi, ular mazmunining teranlashuvi, o'yin shakli va tuzilishining o'zgarishiga olib keladi.

Tayyorgarlik davri, o'yinga kirishish, o'yindagi harakatlarni muhokama qilish, asosiylarini belgilab olish jarayonlariga bo'linadi. Bu jarayonlar o'yin mazmunini to'laroq ifoda eta olishga, o'zaro iliq munosabatlarini o'rnatishda kelishib olishga yordam beradi. O'yinni rivojlantirish uchun o'yinga qo'yiladigan talablar mazmunini o'zgartirish kerak. O'yin vaziyatini tanlash o'yinga rahbarlik qilayotgan pedagogning mahoratiga, qiziqishiga bog'liq.

Syujetli-rolli o'yinlar mazmunining o'ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan hisoblanadi. Mashhur pedagog va psixologlardan D.B.Elkonin, D.V. Mendjeritskiy, P.E.Samorukova va boshqalarning fikricha, syujetli-rolli o'yinlar kattalarning ijtimoiy hayotidagi rang-barang xatti-harakatlari, ko'rinishlari – bolalar o'yinlarining asosiy mazmuni bo'lib xizmat qilib, kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turidir.

Syujet o'yin faoliyatida asosiy komponent bo'lib, u personajni, hayotiy vaziyatni, harakat va personajlar munosabatini o'z ichiga oladi. Syujetli-rolli o'yinlar o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra jamoa o'yini bo'lib hisoblansada, yakka holda o'ynalmaydi, degan fikrni keltirib chiqarmasligi kerak. Syujetli-rolli o'yinlar bolaning aqliy, axloqiy, jismoniy rivojlanishlarida muhim ahamiyat kasb etib, bunda bola ehtiyoji va malakasi tarbiyalanib, shakllanib boradi.

Syujetli-rolli o'yinlarga rahbarlik qilish quyidagi asosiy bosqichlarda amalga oshiriladi.

1 - *bosqich*. Bolalarning qiziqishlarini, ulardagi syujetli o'yinlar rivojlanishi darajasini o'rganishning asosiy vositasi quyidagilar:

- bolalar o'yinlarini kuzatish,
- o'yin rivojining asosiy yo'nalishlari, o'yin mavzusi, o'yin mazmuni, bola o'yin faoliyatining rivoji, o'yinda o'zaro munosabatlarning rivojlanishi bo'yicha tavsifnoma tuzish;
- o'yinga rahbarlik maqsadini aniqlash.

2 – *bosqich*. Kattalarning o'yin mavzui va mazmuniga ta'sir etishi:

- o'yin mavzui bo'yicha sayohat va maqsadli sayrlar;
- suhbatlar;
- badiiy asarlar va hikoyalar o'qib berish;
- illyustrativ rasmlar ko'rsatish;
- mavzu bo'yicha turli mashg'ulotlar;
- tasviriy faoliyat mashg'ulotlari.

3 – *bosqich*. O'yinga tayyorgarlik (o'yin o'ynash uchun maxsus joy, o'yinchoqlar va o'yin materiallari):

- tayyor o'yinchoqlarni tanlash;
- qo'lda yasalgan o'yinchoqlar. Bunda bolalarning mustaqil

shuQullanishlari uchun o'yin zonasini tashkil etish.

4 – *bosqich*. Bolalarni o'ynashga o'rgatish (o'yin jarayoni va boshqa narsalarni o'yinda aks ettirish):

- o'yinchoq va uning o'rnini bosuvchi buyumlar ta'sirini o'rganish;
- o'yinda xayoliy tasavvurlarni aks ettirishga o'rgatish;
- o'yinda so'zlardan foydalanishga o'rgatish;
- o'yinda harakatlarni hisobga olish malakalarini shakllantirish;
- so'z va harakat;
- harakat va o'yin materiallari,
- so'z, harakat va o'yin materiallari o'yinning tili hisoblanadi.

5 – *bosqich*. O'yinda axloqiy munosabatlarga ta'sir etish, bolalar jamoasi, xulq-atvor, madaniyat, o'yin faoliyatida o'yin madaniyatini shakllantirish:

- ma'lum o'yin mavzuiga nisbatan bolalarning his-tuyqularini uyg'otish;
- bolalarga o'yinni avvaldan rejalashtirish elementlarini o'rgatish;
- o'yinda rol va o'yinchoqlarni oqilona taqsimlashga o'rgatish;
- tengdoshlari bilan ahil o'ynay olish madaniyatini tarbiyalash;
- ahil jamoani shakllantirish: mustaqil o'ynash va o'yinni oxiriga etkazish, o'yin jarayonidagi kelishmovchilik, bahslarni oqilona hal eta olish malakalarini tarbiyalash;
- kattalarning o'yinga ta'sir etishi – maslahat berishi, tushunchalarini to'ldirish, o'yinga to'laqonli yordam berish;
- bolalarning o'yin faoliyatlarini, axloqiy munosabatlarni baholash.

Sahnalashtirish o'yinlarining o'ziga xos xususiyatlari. Sahnalashtirish o'yinlari, bu bolalarning mustaqil ijodiy o'yin turi bo'lib, unda badiiy asar va hikoyalar bolalar tomonidan rollarga bo'lib ijro etiladi. Bu o'yinlar bolalarda iroda, intizom va o'z xatti-harakatlarini boshqara olish, boshqalarning harakatlari bilan hisoblashish kabi ijobiy ma'naviy xislatlarni shakllantiradi.

Sahnalashtirish o'yinlarida bolalar o'yin jarayoniga kirib boradilar, voqea va ertak qahramonlarining ichki hayotiga bevosita aloqador bo'lgan qahramonlik, jasurlik, mehribonlik, jonbozlik, jonkuyarlik kabi ijobiy fazilatlarni o'zlarida yaqqol namoyon qiladilar. Bu jarayonda bolalarning nutq faolligi, luqat boyligi, dunyoqarashi kengayib boradi.

Sahnalashtirish uchun badiiy asar, ertaklar tanlash katta yoshdagilardan bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, istaklarini hisobga olishni talab etadi.

*Adabiy asarlarni tanlashda quyidagi talablar qo'yiladi:*

1. Asar mazmunining Qoyaviy-ma'naviy barkamolligi.
2. Asarning badiiy jihatdan mazmundorligi.
3. Asardagi qatnashchi va rollarning soni (qancha ko'p bo'lsa, asar shuncha ahamiyatlidir).
4. Asarda mazmun yaxshi bo'lishi bilan birga, harakatlarning turi ham ko'p bo'lishi.
5. Asar ifodali o'qishga mos bo'lishi.

## 6. Asar mazmuni qiziqarli, hayot bilan bo'qlangan bo'lmoqi.

Bolalar xalq ertaklarini sahnalashtirishni yaxshi ko'radilar. Masalan, "Sholg'om", "Zumrad va Qimmat", "Bo'g'irsoq" va boshqalar. Bolalar boshqa xalq ertaklarini ham turli usullarda qo'qirchoq, soya, stol teatri orqali sahnalashtirishga ehtiyoj sezadilar.

Badiiy asarni eslab qolishlari uchun uni qayta o'qib berish, sahna ko'rsatish, rasmlar namoyish etish, didaktik o'yinlardan foydalaniladi.

Sahnalashtirish o'yinlari qiziqarli o'tishi va uzoq vaqt davom etishi uchun kerakli jihozlar tayyorlanishi va unga to'g'ri rahbarlik qilinishi kerak. Kattalar o'yin rejissyori rolini amalga oshira borib, bolalarning xatti-harakatlari, qobiliyatlari, intilishlarini hisobga olib boradilar. O'yinda faol ishtirok etgan bolalarni alohida rag'batlantirilib, kelgusida qaysi asarlarni sahnalashtirish kerakligini aniqlaydilar.

Bolalarni ijodiy qobiliyatlarini yanada takomillashtirishda qurilish materiallari bilan o'tkaziladigan o'yinlarning roli kattadir.

Pedagoglardan Z.V.Lishtvan, V.G.Nechaeva o'z tadqiqotlarida qurish-yasash o'yinlarining o'ziga xos tomonlari va ahamiyatini yoritib berganlar.

Qurish-yasash o'yinlari bolada buyum obrazini fazoviy ifodada tasvirlashni talab qiladi. O'yin jarayonida biror bir material yoki buyumning xajmi, katta-kichikligi, bir-biriga mosligi, fazoviy mo'ljallay olish ko'nikmasi shakllanadi, rivojlanadi. Qurish-yasash o'yinlari bolalarda kuzatuvchanlikni shakllantiradi, buyumlarni fazoviy joylashtira olishga o'rgatadi.

Bu o'yinlarni o'tkazish quyidagi bosqichlarda o'tkaziladi.

1 - bosqich. Bolalarning qurish-yasash qobiliyatlari ko'nikma-malakalarini, qiziqishlari darajasini o'rganish. Qurilish o'yinlariga rahbarlik maqsadini aniqlash.

2 – bosqich. Qurilish inshoot va binolariga sayohat, ekskursiya, maqsadli sayrlar tashkil etish. Turli suratlar, rasmlar, badiiy asarlar, suhbat orqali katta shahar va poytaxtdagi binolar, quruvchilar mehnati bilan yaqindan tanishtirish.

3 – bosqich. 1. Bolalar o'yinlari uchun sharoit yaratish. Qurilish materiallarini etarli tarzda tayyorlash (guruh va yakka-yakka shuQullanishlari uchun).

2. Qurilish materiallari turli hajm va katta-kichiklikda bo'lishi mumkin.
3. Guruhda va er maydonchasida qurilish materiallari hamda ish qurollarning saqlanishi.
4. Qurilish materiallarining to'g'ri va qulay saqlanishi.
5. Qurilish burchagidagi o'yinchoqlar va materiallarning joylanishi.
6. Tashlandiq materiallardan qo'lbola o'yinchoqlarning mavjudligi.
7. O'lkamiz va uning poytaxti, turli transportlar aks ettirilgan albomlar.
8. Bino va inshootlarning qurilishini bolalar bilan kuzatish.

4 – bosqich. Bolalarni qurish-yasashga o'rgatish va malakalarini shakllantirish. Bunda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Kattalarning tushuntirib, ko'rsatib berishi.
2. Kattalarning biror-bir qurilishni qurib ko'rsatishi, har bir qismni tahlil qilib berishi.
3. Namuna sifatida tayyor qurilish inshootini ko'rsatish.
4. Qurilishning ayrim muhim qismlari va ularning xususiyatlari bilan tanishtirish.
5. Tugallanmagan qurilish ob'ektini davom ettirishga jalb etish.
6. Berilgan mavzu asosida binolarni mustaqil qurish-yasashlari.
7. Bolalarning ijodiy-ixtiyoriy qurish-yasashlari.
8. Tayyor qurilishni tahlil qilish.

5–bosqich. Bolalarning ijodiy qurilish o'yinlarini tashkil etish. O'yin jarayonida o'zaro munosabatlarda axloqiy sifatlarni, o'ynay olish madaniyatini shakllantirish, shuningdek, yoz oyida qum, suv, qish oyida esa qor bilan o'ynashga rahbarlik qilish.

Qum bilan o'ynash. Qum bolalarning o'ynashlari uchun eng qulay o'yin vositasi bo'lib hisoblanadi. Qumlar maxsus yashiklarda nam holatda saqlanadi. Qumni saqlashga gigienik talablar qo'yiladi: a) qum turli xil tosh, shishalardan tozalangan bo'lishi; b) qum faqat namroq holda saqlanishi; d) bolalarning salomatligiga xavf solmasligi kerak.

O'yin faoliyati bolalarni individual ravishda urganish imkonini beradi. Ayrim bolalar jamoa bulib uynashni yoktiradilar bu psixologik bolani umumiy taraqqiyotiga ta'sir etadi. SHuning uchun tarbiyachilar jamoa o'yinlarga tortishlari kerak

Bugungi kunda o'yinlarning turli-tuman turlari mavjud: milliy o'yinlar, harakatli o'yinlar, sport o'yinlari; so'z o'yini; qo'g'irchoq o'yini; ma'naviy ma'rifiy o'yinlar; intellektual o'yinlar; o'ylab top o'yinlari; zamonaviy texnika va kompyuter o'yinlari. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o'yini o'zining mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-xildir, uni quyidagi turkumlarga ajratishadi:

1)Ijodiy o'yinlar.

2)Qoidali o'yinlar.

Ijodiy o'yinlarni bolalarning o'zlari ixtiro etadilar. Bunda avvaldan belgilangan qoidalar bo'lmaydi, o'yin qoidasini bolalarning o'zlari o'yin jarayonida belgilab olishadi.

Ijodiy o'yinlar turlariga drammalashgan o'yinlar, kurilish o'yinlari,tabiiy materiallar bilan o'ynaladigan o'yinlar kiradi. Tabiiy materiallarning nomlanishi jarayonida geometrik figuralar, arifmetik hisob to'g'risidagi tushunchalar aytilishi natijasida bolalarda dastlabki elementar matematik tasavvurlar shakllantiriladi.

Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik proseslari bilan birlikda individual ( shaxsiy) xislatlari ham shaklllanadi. Mana shu nuqtai nazardan o'yin maktabgacha ta'lim muassasadagi ta'lim – tarbiya ishlari orasida eng asosiy, markaziy o'rinda turadi. Demak, maktabgacha ta'lim muassasadagi ta'lim – tarbiya ishlarini muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog'liqdir.

Bolalarni kattalar mehnati haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish, kishilar mehnatiga hurmat hissini tarbiyalashni davom ettirish. Bolalarga dehqonchilik, chorvachilik haqida so'zlab berish va ularni dehqon, chorvador va bog'bon mehnatining mazmuni bilan tanishtirish. Bozor haqida tushuncha berish. Kasb-hunarga oid (“Do‘kon”, “Dehqon bobo”, “Pochta”, “CHepar”, “Haydovchi”, “O‘qituvchi”, “Hamshira”, “Bozor-bozor”, “Oshpaz” ) turli o'yinlar o'ynash.

## II. BOB BO`YICHA XULOSA

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar mehnatining mazmuni mehnat tarbiyasining mazmuni va bolalarning imkoniyatlari bilan belgilanadi

Maktabgacha ta'lim muassasalari ishi mazmuni «Bolajon» dasturida har bir yosh guruhiga alohida ko'rsatib o'tilgan. Mehnat faoliyatida va bolalarning mehnat jarayonida tarkib topadigan shaxsiy fazilatlariga qo'yiladigan talablarning asta-sekin murakkablashib borishi masalalariga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Mehnat tarbiyasiga oid bilimlar bolalarning shaxsiy mehnat faoliyatining shakllanishi, uning tashkil etilishi, rivojlantirilishi, natijalariga ta'sir etadi. Bolalar kattalarga taqlid qilib, mehnat jarayonini yaxshiroq va maqsadga muvofiq qilib bajarilishini o'rganib boradilar. Egallagan bilimlari orqali mehnatga to'g'ri munosabat, unga qiziqish, mehnat faoliyatida kattalarga taqlid qilishga intilish, buyumlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish hissini shakllantirishga asos bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat faoliyatining shakllanishida kattalarning mehnat faoliyati muhim rol uynaydi. SHuning uchun bola mehnat jarayonlariga kirishishdan oldin mehnatning asosiy tarkibiy qismlarini ajratib olishi va anglab etishi, mehnat malakalarini o'zlashtirishi zarur. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali ularga kattalarning mehnati ijtimoy foydali mehnat bo'lib, narsa va buyumlarni yaratishga qaratilganligi, kasb – hunar egallash, ular har bir inson uchun va butun xalq uchun zarur ekanligi to'g'risida tushuncha berib boriladi.

Jamiyat hayotida mehnat jarayonida bolalar kattalar mehnatiga taqlid qilish orqali o'ynaydilar, xuddi shu o'yin keyinchalik bolalarni mehnat faoliyatiga tayyorlashda muhim bosqich bo'lib hisoblanishini asoslab, o'yinni obrazli, hayotni haqqoniy aks ettiruvchi jarayondir, degan edi V.G.Plexanov.

O'yin o'z mohiyati jihatidan katta kishilarning hatti –harakatlari va xulq-atvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo'lishi tufayli bolalarda ma'naviy sifatlarning mustahkamlanishi uchun va odob – axloq qoidalarini bilib olishlari uchun keng imkoniyatlar beradi. Maktabgacha yoshdagi bola o'yin jarayonida

tabiblik yoki muallimlik rolini bajarayotgan bo'lsa, shu kasbga tegishli barcha sifatlarni namoyon qilishga intiladi. Ular o'yinga juda berilib ketsalar, bajarayotgan rollariga xos sifatlarni shunchalik samimiy, ijodiy tarzda namoyon bo'ladi. Bolalar uchun o'yin mazmunining hech bir chegarasi yo'q.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalar hayotini hamma tomonlarini o'z o'yinlarida aks ettira oladilar. O'yinning ahamiyati bola shaxsining o'sib kamolotga etishiga ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. O'yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi dunyoni va kishilar o'rtasidagi munosabatlarni bilib olishni ifodalaydi. Bolaning moddiy dunyoga, kishilarga o'z-o'ziga munosabati o'zgarayotgan o'yinda namoyon bo'ladi. Bolalarning ehtiyojlari, istak, qiziqish (xavas) lari bevosita o'yinda ifodalanadi. O'yin bolalarning xayolparastligi tufayli narsalar va kishilar dunyosini ular uchun ma'qul tomonga "o'zgartirish" imkoniyatini beradigan faoliyatdir.

Shuni ham ta'kidlab utish kerakki o'yin faqat tashqi muxitdagi narsa xodisalarni bilish vositasigina emas, balki kudratli tarbiya vositasi xamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xislatlari ham shakllanadi. Demak, maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'lim tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila borishga bog'liqdir.

### III.bob : MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KASB-HUNARGA QIZIQISHNI UYG‘OTISH BO‘YICHA TAJRIBA –SINOV ISHLARI.

#### 3.1 MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KASB-HUNARGA QIZIQISH UYG‘OTISHGA QARATILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARI .

Atrof olam to‘g‘risidagi bilimga ega bo‘lish va uni anglash

Kattalar mehnati.(kichik guruhda) Bolalarda kattalar mehnatiga hurmat va qiziqish hissini tarbiyalash. O‘zbek xalqining milliy hunarmandchilik mehnati-duradgorlik bilan tanishtirish.

Dehqon mehnati haqida qisqacha ma’lumot berish.

Bolalarda o‘z tarbiyachisi va boshqalar mehnati haqidagi tushunchalarini kengaytirish.

Bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish jarayonida ularda inson va uning mehnatiga hurmat hissini shakllantirishga e’tiborni kuchaytirish.

Transport vositalari. Bolalarni xududdagi transport vositalari bilan tanishtirish, ulardan foydalanish qonun - qoidalari haqida ma’lumot berish.

Jamoat transporti (avtobus, tramvay, trolleybus, poezd, samolyot, yuk mashinalari) turlari haqidagi bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, ularni nomini aytish va harakat muhitiga (er, osmon, suv) va vazifalariga (yuk, yo‘lovchi) ko‘ra farqlashga o‘rgatish. Transport vositalarini boshqaruvchi kasb egalari haqida qisqacha tushuncha berish (haydovchi, uchuvchi, dengizchi va h.k.).

Yo‘l harakati qoidalari bilan tanishtirishni davom ettirish. Svetofor va uning vazifasi haqida tasavvur hosil qilish.

Kattalar mehnati.(o‘rta guruhda) Bolalar maktabgacha ta’lim muassasasi xodimlari (enaga, oshpaz, qorovul, hamshira va h.k.)ning mehnati haqidagi tasavvurlarini boyitish. Ularning mehnat jarayonlari (enaga xonani tozalaydi, idish-tovoqlarni, derazalarni yuvadi, sochiqlarni almashtiradi, ovqat keltiradi, bolalarning kiyinishlariga yordam beradi va h.k) bilan tanishtirish. Bolalarda kattalarning mehnati natijalarini hurmat qilishga va e’zozlashga o‘rgatish. Oshpazning turli-tuman ovqatlar, pishiriqlar, ichimliklar tayyorlashi haqida

tushunchalar berish. Tarbiyachi bolani o'z oila a'zolarini, tarbiyachi, enaga va musiqa rahbarining ismini bilishlariga va "sizlab" murojaat etishlariga erishishlari lozim.

Kattalar mehnati natijasida kerakli narsalar, predmetlar yaratilishini tushuntirish. Oshpaz, kir yuvuvchi, sotuvchi, quruvchi, haydovchi mehnati va ularning asosiy ishlari haqida bilim berish. Ish natijasi va uning ahamiyatini ajratib ko'rsatishga o'rgatish. Kattalar mehnati uchun zarur bo'ladigan materiallar, kishilar mehnatini engillashtiradigan, mehnat jarayoni va natijalariga erishishni tezlashtiradigan mashinalar bilan tanishtirish.

Turli transport vositalari va kasblar haqida tushuncha berish. Bolalarning bu boradagi bilimlarini kengaytirish va ularning nomlarini to'g'ri aytishga odatlantirish.

Kattalar mehnati.(katta guruhda) Bolalarning kattalar mehnati haqidagi tasavvurlarini umumlashtirish. Kishilar mehnatiga hurmat hissini tarbiyalash.Ishlab chiqarish korxonalari, qurilishlar, dalalarda qilinadigan mehnat haqidagi bilimlarini takomillashtirish. Mehnatning shu joyda tarqalgan turlari bilan bolalarni yaqindan tanishtirish. Ularni yaqin atrofdagi korxonaga olib borish(mebel, avtomobil, televizor, chinni ishlab chiqaruvchi korxona, novvoyxona va h.k.). bu korxonaning nomi, u erda kimlar ishlashi, qanday maxsulot ishlab chiqarishi, mehnat quroli va asboblari haqidagi bilimlarini aniqlash va takomillashtirish.

Ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni mamlakat aholisi uchun ahamiyati bilan tanishtirish. Mashinasoz, tikuvchi, kosib, nonvoy, oshpaz, o'ymakor, bo'yoqchi, haydovchi kabi kasblar bilan tanishtirish. Ishning maqsadi, natijasi va ularning jamiyat uchun ahamiyati, turli xil «aqli» mashinalarning kishilar mehnatini engillashtirishi, tovarlar sifatini yaxshilash va ishlab chiqarishni tezlashtirishdagi roli haqidagi bilimlarini kengaytirish.

O'zbekistondagi ishlab chiqarish korxonalarida ham ro'zg'orga kerakli mahsulotlar, texnika asboblari, mashinalar, kiyimlar, matolar va iplar chiqariladi.

O'zbekiston polizlari va bog'larida etishtiriladigan shirin-shakar maxsulotlar mirishkor dehqonlar va zahmatkash bog'bonlarning mehnati tufayli ekanligi haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O'zbek xalqi qadim-qadim zamonlardan beri dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishi haqidagi tasavvurlarini shakllantirish. O'zbekistonda paxta, bug'doy, arpa, sholi, kanop, makkajo'xori va boshqalar ekiladi.

CHorvachilikka oid kasblar: cho'pon, otboqar, sut sog'uvchilar va boshqa kasblar haqidagi tushunchalarini kengaytirish.

Kishilarning dala, bog', polizlardagi, chorvachilik fermasidagi mehnatlari mazmuni bilan tanishtirish. Masalan, dehqon erta kuzdan boshlab er haydab, kelgusi yil hosilini ekish uchun tayyorlashi, o'g'itlashning ahamiyati, erta bahordan erga urug' ekish, uni parvarishlashi, vaqtida sug'orishi va h.k.

Bolalarni paxtakorlarning mashaqqatli mehnati bilan tanishtirish, uning erga ishlov berib, chigit ekishi, to hosilni yig'ib-terib olguncha g'o'zani asrab-avaylab o'stirishi, vaqtida sug'orib, ishlov berish shu bilan birga-bu ishlarda ob-havo injiqliklarini engishi kerakligi haqida tushuncha berish.

Pillakorlar mehnati bilan tanishtirish. Pillaning yurtimiz boyligi ekanligi, u bilan boshqa davlatlarni ham ta'minlashimiz haqida so'zlab berish. Pillaning ipakli gazlama xoliga kelguncha bo'lgan mashaqqatli mehnati bilan tanishtirish.

Ipak qurtlari tut bargi bilan oziqlanishi va pilla o'rashi, undan ipaklar echilib o'ralishi va ipakdan turli gazlamalar, xon atlaslar to'qilishi haqida suhbatlar o'tkazish. Pillakorlar kasbiga muhabbat uyg'otish.

Xalq xo'jaligining muhim tarmog'i hisoblangan qurilish haqida qisqacha tushuncha berish. Bolalarga paxsa devorli, xom va pishgan g'ishtli va beton uylar haqida tushuncha berish.

Madaniy-maishiy xizmat xodimlari, ularning vazifalar (tarbiyachi, o'qituvchi, tikuvchi, sotuvchi, shifokor va h.k.) to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish. 2-3 xil kasb egalarining mehnat jarayonini kuzatib borish.

«Ishlash uchun kimga nima kerak», «Bog'bon-bog'bon», «Kim chaqqon», «Nimaning o'rni o'zgardi» kabi o'yinlarni o'ynash

Bozor, do‘kon, sotuvchi, xaridor haqida tushuncha berish. Sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi muomala madaniyati haqida tushuncha berish. Bozor va do‘konlarning turlari (oziq-ovqat, kiyim-kechak, o‘yinchoqlar, xo‘jalik mollari kabi) haqida tushunchalarini mustahkamlash.

Kattalar mehnati.(tayyorlov guruhda) Bolalarni kattalar mehnati haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish, kishilar mehnatiga hurmat hissini tarbiyalashni davom ettirish. Bolalarga dehqonchilik, chorvachilik haqida so‘zlab berish va ularni dehqon, chorvador va bog‘bon mehnatining mazmuni bilan tanishtirish. Bozor haqida tushuncha berish.

Kasb-hunarga oid (“Do‘kon”, “Dehqon bobo”, “Pochta”, “CHevar”, “Haydovchi”, “O‘qituvchi”, “Hamshira”, “Bozor-bozor”, “Oshpaz” ) turli o‘yinlar o‘ynash.

### 3.2 TAJRIBA -SINOV ISHLSRI NATIJALARI .

Bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zining kuchi, aqli etadigan narsalar bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zini kuchi ham, aqli ham etmaydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga, ya'ni bilib olishga intilaveradi. Buning natijasida bolaning haddan tashqari tez ortib borayotgan turlari ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasida keskin qarama – qarshilik yuz beradi. Masalan bola avtomashinani, tramvayni o'zi xaydagisi, rostakam otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib samolyotda uchgisi, rostakam militsioner bo'lgisi keladi.

Bolalarda ahillik bilan o'ynay olish kerakligini, rollarni taqsimlay berib, ko'zlangan maqsadga erishish uchun , tortinchoq va uyatchan bolalarga loyiq rollarni taklif qilib, ularning o'yinga qushilishiga yordam berish orqali yuqori natijalarga erishdim.

Bolalar rollarni tanlab o'ynadilar. Ijodiy o'yinlarda xatti-harakatlarni, bajarish asosida, ahloqiy tomonlarini ham o'zlashtirishdi.

O'yinlarni ijodiyi, mazmuniga ko'ra 3 guruhga bo'lish mumkin, bu guruhlarining barchasini bolalarning o'ynash jarayonida kuzatdik.

1. Maishiy o'yinlar (oila, MTM va boshqa voqelikni aks ettiradigan).
2. Mehnat mavzuidagi uyinlar (oila va kattalar mehnatida ishtirok etish, o'z-o'ziga xizmat va boshqalar.).
3. Ijtimoiy mavzudagi o'yinlar .

Bolalar xususiyatiga mos bo'lgan rollarni tanlashdi, rolgaga xos qat'iy yurish-turishni ongli ravishda ijro etdilar. SHunday ekan, o'yin mazkur bola uchun eng zarur faoliyatga aylana boradi va yangi shakldagi harakatlarni, takomillashtirish, ularni anglagan holda esga tushirish ehtimoli yaqqol voqelikka aylana boshlaydi. Biror maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatan o'yinda xulq ko'nikmalarini oldindan va osonroq egallash amalga oshadi.

Ijodiy o'yinlar bu bolalarning mustaqil ijodiy, o'zlari o'ylab chiqqan o'yin majmui bo'lib, unda bolalar o'z taassurotlari, borlik hayotdagi tushunchalari va unga bo'lgan o'z munosabatlarini aks ettiradilar.

Ijodiy o‘yinlar quyidagi turkumlarga bo‘linadi: ijodiy, dramalashtirilgan, qurilish, tabiat materiallari bilan o‘ynaladigan o‘yinlar. Bu turdga o‘yinlarni tajriba jarayonida kuzatdim va bolalar bilan birga tashkil etdim. Ijodiy uyinlar boshqa tur o‘yinlardan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turishi ya’ni o‘yin mazmunining o‘ziga xosligi, rollarning mavjudligi, hayoliy vaziyatning mavjudligi bilan ajralib turishini tajribada ko‘rdim. Bolalar o‘yin faoliyatlarining yana bir ajoyib xususiyati shundan iboratki, o‘yin jarayonida bolaning kiladigan xatti-xarakatlari va bajaradigan rollari kupincha umumiylik xarakteriga ega buladi. Buni shunday tushunish kerakki, bola uzining turli-tuman o‘yinlarida fakat uziga tanish bulgan yolgiz bir shofyorning, vrachning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-xarakatlarigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, tarbiyachilarning xamda uchuvchilarning xatti-xarakatlarini aks ettiradi. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi juda cheklangan kichik yoshdagi bolalar(ba’zan kichik gurux bolalari xam) uzlarining o‘yinlarida konkret odamlarni va ularning xarakatlarini aks ettiradilar. (Masalan, oyisini, adasini, akasini, tarbiyachisini va shu kabi). Urta, katta bogcha yoshidagi bolalarning o‘yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega bula boshlaydi.

Bolalarning o‘yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya’ni yuksak insoniy xislatlarni tarbiyalash mumkin. Bundan tashkari, agarda biz bolalarning o‘yini faoliyatlarini tashkaridan kuzatsak, o‘yin jarayonida ularning barcha shaxsiy xislatlari (kimning nimaga kuprok kizikishi, kobiliyati, irodasi temperamenti) yakkol namoyon bulishini kuramiz. SHuning uchun bolalarning o‘yin faoliyatlari ularni individual ravishda o‘rganish uchun juda qulay vositadir. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar odatda uzlari yolgiz uynaydilar. Predmetli va konstruktorli o‘yinlar orkali bu yoshdagi bolalar uzlarining idrok, xotira, tassavur ,tafakkur xamda xarakat layokatlarini rivojlantiradilar. Syujetli rolli o‘yinlarda bolalar asosan uzlari har kuni kurayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti – xarakatlarini aks ettiradilar.

O‘yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo‘lgan ta’lim faoliyatiga tayyorlaydi

Savolnoma natijalari quyidagicha.

| S\n      | S a v o l l a r |     |     |     |     |     |     |     | Javoblar |   |
|----------|-----------------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|----------|---|
|          | 1               | 2   | 3   | 4   | 5   | 6   | 7   | 8   | -        | + |
| 1        | +               | +   | +   | +   | -   | -   | +   | -   | 3        | 5 |
| 2        | +               | +   | -   | +   | -   | +   | +   | -   | 3        | 5 |
| 3        | +               | -   | -   | -   | +   | +   | +   | +   | 3        | 5 |
| 4        | +               | +   | +   | +   | +   | +   | -   | +   | 1        | 7 |
| 5        | +               | +   | +   | +   | +   | -   | +   | +   | 1        | 7 |
| 6        | +               | -   | +   | +   | +   | +   | +   | +   | 1        | 7 |
| 7        | -               | +   | -   | -   | +   | +   | +   | +   | 3        | 5 |
| 8        | +               | +   | +   | -   | -   | +   | -   | +   | 3        | 5 |
| 9        | +               | -   | +   | +   | +   | -   | +   | -   | 3        | 5 |
| 10       | +               | +   | +   | +   | -   | +   | +   | -   | 2        | 6 |
| 11       | +               | +   | -   | -   | +   | +   | +   | +   | 2        | 6 |
| 12       | -               | +   | +   | +   | -   | -   | -   | +   | 4        | 4 |
| 13       | +               | +   | -   | +   | +   | +   | +   | +   | 1        | 7 |
| 14       | +               | +   | +   | -   | +   | +   | -   | +   | 2        | 6 |
| 15       | +               | +   | +   | +   | -   | -   | +   | -   | 3        | 5 |
| 16       | +               | -   | -   | +   | +   | +   | +   | -   | 3        | 5 |
| 17       | -               | +   | +   | -   | +   | +   | +   | +   | 2        | 6 |
| 18       | +               | +   | +   | +   | -   | -   | -   | +   | 3        | 5 |
| 19       | +               | -   | +   | +   | +   | +   | +   | +   | 1        | 7 |
| 20       | +               | +   | -   | -   | +   | +   | +   | +   | 2        | 6 |
| 21       | +               | +   | +   | +   | +   | +   | -   | +   | 1        | 7 |
| 22       | +               | +   | +   | +   | +   | +   | +   | -   | 1        | 7 |
| T.j<br>% | 87%             | 77% | 69% | 69% | 69% | 73% | 73% | 69% |          |   |
| N.j<br>% | 13%             | 23% | 31% | 31% | 31% | 27% | 27% | 31% |          |   |

Savolnoma natijalari tahliliga ko'ra 22 nafar sinaluvchilarimizning javoblari quyidagicha:

Berilgan sakkizta savolga aniq va tortinmasdan javob bergan sinaluvchilarimiz 72% ni ya'ni 16 nafarni tashkil etdi.

Berilgan sakkizta savolga javob berishga qiynalgan va tortinchoqlik bilan javob bergan sinaluvchilarimiz 28% ni ya'ni 6 nafarni tashkil etdi.

Natijaga ko'ra maqsadimiz 28% ni ya'ni 6 nafar sinaluvchilarimizni ham ijodiy o'yinlarga jalb etish, ularning kirishuvchanligi va faolligini oshirishdan iborat.

### UCHINCHI BOB BO'YICHA XULOSA

#### UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarning etakchi faoliyati bu o'yindir. Maktabgacha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda kup olimlarning diqqatini uziga jalb kilib kelmokda.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uzlarining o'yin faoliyatlarida ildam kadamlar bilan olga karab borayotgan sermazmun xayotimizning xamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar.

Ma'lumki, bolaning yoshi ulgayib mustakil xarakat qilish imkoniyati oshgan sari uning atrofdagi narsa va xodisalar buyicha dunyokarashi kengayib boradi. Bogcha yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosobatga bulishiga intiladi. Bola bilishga tashnaligidan atrofdagi uzining xaddi sigadigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bulgan uzining kuchi ham etmaydigan, xaddi sigmaydigan narsalar bilan ham amaliy munosobatda bulishiga intiladi. Birok tabiiyki bola uzidagi bunday extiyojlarning birontasini xam xakikiy yul bilan kondira olmaydi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli extiejlari bilan ularning tor imkoniyatlari urtasidagi karama - karshilik yuzaga keladi.

Buni shu bilan izoxlab berish mumkinki, birinchidan, bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy maxsulot ishlab chikarishga karatilgan faoliyat emas. SHuning uchun bolalarni o'yinga undovchi sabab(motiv) kelib chikadigan natija bilan emas balki shu o'yin jarayonidagi turli xarakatlarning mazmuni bilan boglikdir.

Ikkinchidan esa, bolalar o'yin jarayonida uz ixtiyorlaridagi narsalarni, uzlarini kiziktirgan, ammo kattalargagina mansub bulgan narsalarga aylantirib xoxlaganlaricha erkin faoliyatda buladilar. Bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jixatdan garmonik ravishda rivojlantirish uchun birdan bir vositadir. O'yin bolalar xaetida shunday kup kirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bulgan mexnat xam, turli narsalar xakida tafakkur kilish, xom xayol, dam olish va xushchakchaklik manbalari xam mujjasamlangandir, ya'ni mana shu jarayonlarning barchasi o'yin faoliyatida anik buladi. SHuni xam ta'kidlab utish kerakki o'yin fakat tashki muxitdagi narsa xodisalarni bilish vositasigina emas, balki kudratli tarbiya vositasi xamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xislatlari xam shakllanadi. Demak, bogchadagi ta'lim tarbiya ishlarining muvaffakiyati ko'p jixatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maksadga muvofik tashkil kila borishga boglikdir.

SHunday kilib, o'yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha bolalar xayolining uzi o'yin jarayonida yuzaga kelib rivojlanadigan narsadir.

Bolalarning o'yin faoliyatlarida xar xil xayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlaridan shunday xulosa chikarish mumkin: odamning (shu jumladan bolalarning xam) tashki muxitdagi narsa va xodisalarni aks ettirish jarayonlari passiv jarayon emas, balki faol xamda ijodiy yaratuvchan, uzgartiruvchan jarayondir.

Bolalar o'yin faoliyatlarining yana bir ajoyib xususiyati shundan iboratki, o'yin jarayonida bolaning kiladigan xatti-xarakatlari va bajaradigan rollari kupincha umumiylik xarakteriga ega buladi. Buni shunday tushunish kerakki, bola uzining

turli-tuman o'yinlarida fakat uziga tanish bulgan yolgiz bir shofyorning, vrachning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-xarakatlarigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, tarbiyachilarning xamda uchuvchilarning xatti-xarakatlarini aks ettiradi. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi juda cheklangan kichik yoshdagi bolalar(ba'zan kichik gurux bolalari xam) uzlarining o'yinlarida konkret odamlarni va ularning xarakatlarini aks ettiradilar. (Masalan, oyisini, adasini, akasini, tarbiyachisini va shu kabi). Urta, katta bogcha yoshidagi bolalarning o'yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega bula boshlaydi.

Bolalarning o'yinlari orkali ularda ijtimoiy foydali, ya'ni yuksak insoniy xislatlarni tarbiyalash mumkin. Bundan tashkari, agarda biz bolalarning o'yini faoliyatlarini tashkaridan kuzatsak, o'yin jarayonida ularning barcha shaxsiy xislatlari (kimning nimaga kuprok kizikishi, kobiliyati, irodasi temperamenti) yakkol namoyon bulishini kuramiz. SHuning uchun bolalarning o'yin faoliyatlari ularni individual ravishda urganish uchun juda kulay vositadir. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar odatda uzlari yolgiz uynaydilar. Predmetli va konstruktorli o'yinlar orkali bu yoshdagi bolalar uzlarining idrok, xotira, tassavur ,tafakkur xamda xarakat layokatlarini rivojlantiradilar. Syujetli rolli o'yinlarda bolalar asosan uzlari xar kuni kurayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti – xarakatlarini aks ettiradilar.

O'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bulgan ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi.

### **Tavsiyalar**

YUqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik.

- 1) Maktabgacha ta'lim tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila borishga boglikdirligini har bir maktabgacha tarbiya muassasasi murabbiylari bilishlari shart.

- 2) O‘yinlar orqali bolalarda ijtimoiy foydali, ya’ni yuksak insoniy xislatlarni tarbiyalash mumkin.
- 3) Bolalarning o‘yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlantirish uchun birdan bir vositadir.
- 4) O‘yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay balki bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy ta’sir kursatadi.
- 5) Maktabgacha tarbiya muassasasi murabbiylariga BMI ishida keltirilgan o‘yinlardan foydalanishlarini tavsiya eramiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A. Karimov. «Mustaqillik va Vatan taraqqiyoti, xalq erkinligi va farovonligi - oliy maqsadimiz». T., «O‘zbekiston», 2000.
2. I.A. Karimov. O‘zbekiston: Milliy mustaqillik, iqtisodiyot, siyosat, mafkura. T., «O‘zbekiston», 1993.
3. Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 1994 yil.
4. Karimov I.A. YUksak malakali mutaxassislar-taraqqiyot omili. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995. – 24 b.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. Asarlar, 4-jild. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 1996 yil.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. Asarlar, 5-jild. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 1997 yil.
7. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2008 yil.
8. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim muassasasi to‘g‘risidagi Nizom. T., 2007 y.
8. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. , - T.: O‘zbekiston. 1997 y.
9. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, -T.: O‘zbekiston. 1997 y.
10. “Bolajon” dasturi. T.: 2010 yil.

11. Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan davlat talablari-T.: Kvinta print. 2012 y
12. Bolotina L.R. Doshkolnaya pedagogika M.: Labirint. 2005 g 49-51 b.
13. N.M. Kayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashr T.: 2013 y 28 b.
14. E. Maxmudov "O'smirlar fiziologiyasi va maktab gigienasi". O'qituvchi. T. 1994y. (INV-2282) 37 -38 b.
15. K. Almatov., "Ulg'ayish fiziologiyasi". M. Ulug'bek nomidagi bosmaxonasi. T. 2004. (INV-6530) 14-16 b.
16. Kozlova S.A., Kulikova T.A. Doshkolnaya pedagogika M.: Akademiya. 2002 g
17. Maxmudov. E. "Vozrastnaya fiziologiya i osnovi gigieni" T. Izd. Lit. Fonda sayuza pisateley RUz. 2006. (INV-U-6552) 82-84 b.
18. M.N. Ismoilov., "Bolalar va o'smirlar gigienasi", 1994 y. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. T. (INV-920.757) 41-43 b.
19. M. Pirmuhamedova. Pedagogik mahorat asosolari. Ma'ruza matni. - T.: TDPU 2001 y. 21 b.
20. M.G. Davletshin va boshqalar "Yosh davrlar va pedagogik psixologiya". TDPU, T.: 2004 32-34 b.
21. Nishonova. Z.T Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. T., 2004 y. 35-37 b.
22. Norbosheva. M bolalar psixologiyasi. 2003 yil. 28-30 b.
23. Ochilov Malla. Muallim qalb me'mori: Saylanma. T: O'qituvchi, 2000 y.
24. O. Raxmatov., "Bolalar yuqumli kasalliklari". Cho'lpon. T. 2008y. 31 b.
25. T.S. Usmonxo'jaev., M.T. Toirova "Kichkintoylarni gigienik tarbiyalash". O'qituvchi. T. 1997. (INV-5296) 25-27 b.
26. S.X. Aripova., " Yosh fiziologiyasi va gigienasi". Fan va texnologiya. T. 2010. (INV-7496). 11-13 b.
27. Sodiqov. Q., Aripova. S.X., SHaxmurova. G.A. "Yosh fiziologiyasi va gigienasi". Yangi asr avlodi. 2009y. (INV-6961) 36-39 b.
28. Y. Usupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvchi. 1993. 77 b.

29.Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006. 23-25 b.

30.F.Qodirova, SH.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma'naviyat". 2013 y. 86-88 b.

31.Sh.A.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalarT.:. 2013 y 45-47 b.

32. SH.Shodmonova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Fan va texnologiya. -T:, 2008 y. 56-58 b

#### Elektron resurslar

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www. pedagog. uz](http://www. pedagog. uz)
3. [www. Ziyonet. uz](http://www. Ziyonet. uz)
4. [www. edu. uz](http://www. edu. uz)
5. tdpu-INTRANET. Ped.

**ILOVALAR**